



MAQSADIMIZ – IQTISODIYOTIMIZNI RIVOJLANTIRIB, AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH, ISH JOYLARINI KO‘PAYTIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hududlar iqtisodiyoti, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida 15-fevral kuni Andijon viloyatiga tashrif buyurdi.



Tashrif dasturida ko‘zda tutilgan manzillar va rejalar ko‘p. Birinchisi “Asaka tekstil” klasterining to‘qimachilik korxonasi bo‘ldi.

Bu ulkan majmua iqtisodiy kontrastning yorqin misoli. 2016-yilgacha bu yer tashlandiq joy edi. Davlatimiz rahbari tadbirkorlarga bergan ruh va madad natijasida bu yerda bosqichma-bosqich yangi binolar qurilib, 2022-yil avgustda ishga tushirildi. Bugungi kunda 83 million dollarlik loyiha evaziga xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan to‘liq “zanjir” tashkil etilgan.

Xususan, klaster tizimida Andijon viloyatining Ulug‘nor va Jalaquduq tumanlari hamda Xorazm viloyatining Yangibozor tumanida 11 ming 200 gektar maydonda paxta yetishtiriladi. Umuman 2700 gektarda tomchilab sug‘orish yo‘lga qo‘yilgan.

Asakadagi korxonaga Shveysariya, Italiya, Turkiya, Germaniya, Yaponiyadan uskunalar keltirib o‘rnatilgan. U yiliga 11 ming tonna ip-kalava, 8 ming tonna momiq va trikotaj mato, 12 ming tonna ip va matoni bo‘yash, 6 ming tonna tayyor trikotaj va sochiq ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu yerda 3 ming 200 kishi ishlayotgan.

Korxonada xorijiy hamkorlar talabiga asosan sifat nazorati, kasb o‘rgatish markazi tashkil etilgan. Bo‘yoq sexidan chiqqan suvni tozalash inshooti ham ishga tushirilgan.

Umuman, klaster tomonidan 102 million dollarlik loyihalar amalga oshirilib, yillik 50 million dollarlik eksport quvvati yaratilgan. Bundan yetti yil oldingi holat bilan solishtirganda daromad, iqtisodiy manfaatdordlikdagi farq yer bilan osmoncha.

Kelgusi yillarda klaster tomonidan Ulug‘nor tumanida 70 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash zavodi, tikuv-trikotaj va paypoq ishlab chiqarish korxonasi tashkil qilinishi rejalashtirilgan. Ularda yana 1 ming 600 dan ziyod ish o‘rni ochiladi.

Shu yerda Andijon viloyati misolida paxta-to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish konsepsiyasi bo‘yicha axborot berildi. Qayd etilganidek, ishlab chiqarish tannarxi 15 foizga qisqartiriladi, 65 foiz qo‘shilgan qiymat yaratiladi. Dizayner va texnologlar maktabi tashkil etiladi. Nufuzli brendlar va riteylar jalb etilib, tarmoq korxonalari eksporti 800 million dollarga yetkaziladi.

Davlatimiz rahbari klaster bilan fermerlar o‘rtasidagi munosabatlarda manfaatdordlikni oshirish masalasiga alohida e‘tibor qaratdi.

— Qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlari rivojlantiraymiz. Maqsadimiz — yer-ga nisbatan e‘tiborni, mahsulot yetishtiruvchilar manfaatini kuchaytirish. Sohaning quyi bo‘g‘ini bo‘lgan dehqon va fermerlar ham raqobatbardosh bo‘lishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident korxonada ishlayotgan tikuvchi ayollar bilan suhbatlashdi. Ularning ayrimlari o‘z tumanida yuqori maoshli ish paydo bo‘lgani uchun mehnat muhojirligidan qaytib kelgan.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari Andijon tumanidagi “Andijon sanoat xabi”dagi korxonalar faoliyatini bilan tanishdi.

105 gektar maydonni egallagan ushbu sanoat hududida mashinasozlik, elektrotexnika, qurilish materiallari kabi tarmoqlardagi 12 ta loyiha joylashgan. Ulardan biri — “Avto

Spring Components” mas‘uliyati cheklangan jamiyati. Umumiy qiymati qariyb 60 million AQSH dollari bo‘lgan bu korxona yiliga 18 ming tonna po‘lat detallar ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Ma‘lumki, quyma detallar sanoatning asosi hisoblanadi. Ularni ishlab chiqarish yuksak malaka va texnologiyalar talab etadi. Xususan, ilgari mamlakatimizning avtomobilsozlik va mashinasozlik tarmoqlarida bunday qismlar importi katta o‘rin tutardi. Ularning mahalliyashtirilishi endi tannarxni kamaytirib, raqobatbardoshlikni oshiradi.

Korxonada Xitoy va Germaniya davlatlari texnologiyalari asosida po‘lat qismlar tayyorlash loyihasi boshlangan. Metall quyuv qismi AQSH, mexanik ishlov berish qismi Xitoy kompaniyalari tomonidan loyihalashtirilgan. O‘tgan yili 4 turdagi qishloq xo‘jaligi texnikasi uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarilgan.

Bu loyihaning birinchi bosqichi bo‘lib, 140 ta ish o‘rni yaratilgan. Shu yilning may oyida avtomobillar uchun quyma qismlar tayyorlanadigan ikkinchi bosqich ishga tushiriladi.

Bu noyob korxona bir vaqtning o‘zida 12 tonna metall eritish imkoniyatiga ega. Yana bir samarali tomoni, xomashyolar Asaka tumanidagi avtomobil zavodining temir chiqindilaridan olinib, qayta ishlanadi.

Majmua to‘liq quvvatga chiqqanda, yiliga 27 million dollarlik mahsulotlar mahalliyashtiriladi. Prezidentimizga mahalliyashtiriladigan mahsulotlar haqida axborot berildi. Bunda tannarxni kamaytirish va “yashil” texnologiyalarni qo‘llashga katta e‘tibor qaratiladi.

Joriy yilda umumiy qiymati 156 million dollarlik 10 ta loyiha ishga tushirilib, 2 ming kishining bandligi ta‘minlanadi. 2025-yilda umumiy qiymati 14 million dollarlik 2 ta loyihani amalga oshirib, yana 400 ta ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari “Andijon sanoat xabi”da viloyatda ishlab chiqarilayotgan mebellar ko‘rgazmasi bilan tanishdi.

Andijon viloyatida 377 ta mebelsozlik korxonasi faoliyat yuritmoqda. So‘nggi 5 yil davomida mazkur yo‘nalishda 35 million dollarlik 84 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 3 mingdan ziyod ish o‘rni yaratilgan. Mebel ishlab chiqarish hajmi 2016-yilga nisbatan 15 barobarga ortgan.

Mebelsozlar uchun soliq, bojxona to‘lovlari bo‘yicha qator imtiyozlar joriy etilgani, eksportdagi xarajatlar hamda xorijdan jalb etilgan mutaxassislar ish haqining qisman qoplab berilishi soha vakillariga katta rag‘bat bo‘lmoqda.

Bugungi kunda yiliga 300 milliard so‘mlik mahsulotlar tayyorlanib, mintqa mamlakatlari eksport qilinmoqda.

Prezidentimiz korxonalar ta‘sischilari bilan suhbatlashdi.

— O‘tgan yillardagi eng katta yutuqlardan biri tadbirkorlarimizda ong o‘zgardi, ishonch ortdi. Bugun ular raqobatbardosh bo‘lib, dunyoga chiqaypti. Bular ham faoliyatini odiy ishdan, mahalladan boshlagan. Boshqalar ham shunday qilsa bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu yerda aholi tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, bandligini ta‘minlash chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Andijon viloyatida 41 ta mahalla mebelsozlikka ixtisoslashgan. Masalan, Oltinko‘l tumanidagi Ijtimoiy mahallasida 490 ta xonadonda mebel tayyorlash kooperatsiya usulida yo‘lga qo‘yilgan.

Bundan tashqari, yakka tartibda ro‘yxatdan o‘tgan va o‘zini o‘zi band qilgan hunarmandlar ham ko‘p. Minglab yoshlar “Ustoz-shogird” an‘anasi asosida hunar o‘rganmoqda.

Shu bois, mebelchilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha ish olib borilmoqda. Andijon va Oltinko‘l tumanlarida bunga ixtisoslashgan 2 ta sanoat zonasi tashkil etilmoqda.

Ushbu tajriba asosida viloyatdagi 909 ta mahallaning imkoniyatlarini o‘rganib, serdarmad yo‘nalishlarga ixtisoslashtirish choralarini muhokama qilindi. Buning uchun davlat tomonidan infratuzilma yaratilib, moddiy-tashkiliy jihatdan ko‘mak beriladi. Maqsad — Andijon viloyatini ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylantirishga intilish.

Prezident Andijon viloyatida amalga oshirilishi rejalashtirilgan yirik loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, xitoylik investorlar bilan hamkorlikda jami 1,7 milliard dollarlik 26 ta loyiha ustida ish olib borilmoqda. Ular energetika, elektrotexnika, mashinasozlik, to‘qimachilik, qurilish materiallari, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, ta‘lim va infratuzilma kabi muhim sohalarni o‘z ichiga oladi.

Masalan, mini gidroelektrostansiyalar, uy-joy va ko‘ngilochar maskanlar qurish, elektrobuslar va ular uchun akkumulyatorlar, keramogranit va beton panellar, dori vositalari ishlab chiqarish, gilos va rezavor mevalar yetishtirish kabi loyihalar ko‘plab ish o‘rinlari, iqtisodiy samaradorligi bilan xalqimizga katta manfaat keltiradi.

Davlatimiz rahbari xitoylik investorlar bilan suhbatlashdi. Ular O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi strategik sheriklik yuksak darajaga chiqqani, mamlakatimizdagi ulkan imkoniyatlar ishbilarmonlarga ishonch berayotganini ta‘kidlashdi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Marhamat tumanidagi shaxmat maktabi va kutubxonada bo‘ldi.

Yurtimiz oldindan salohiyati shaxmat maktabiga ega. Bugun ham bolalar o‘rtasida “aql gimnastikasi”ga qiziqish katta. Ularning bu ishtiyoqini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida Marhamat tumanida ham majmua bunyod etildi. Erkin Vohidov nomidagi ushbu maktabda o‘quvchilar darsdan bo‘sh vaqtlarida aql mashqidan saboq oladi. Ularning mahoratini oshirish uchun tajribali murabbiylar jalb qilingan. O‘quv-mashg‘ulot xonalari va musobaqa zali mavjud. Kompyuterlashgan ilg‘or dasturlar yoshlarga manzur bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbari bu yerda saboq olayotgan o‘g‘il-qizlarning intilishlarini qo‘llab-quvvatlab, ezu tilaklar bildirdi. Bu muassasani boshqa shaxmat maktablari bilan bog‘lab, tajriba almashib borish muhimligini ta‘kidladi.

Ushbu maktabga tutash Yoshlar kutubxonasi ham qurilgan. U keng va shinam, bir vaqtda 150 dan ortiq kitobxon mutolaa qilishi mumkin. Kutubxona 30 ming nusxadan ziyod adabiyotga ega, qator axborot markazlari tarmog‘iga ulangan. Shular bois, yoshlarning sevimli maskaniga, intellektual o‘yinlar, ijodiy uchrashuvlar, kitob taqdimotlari o‘tkaziladigan qaynoq dargohga aylangan.

Prezident shu yerda andijonlik yoshlar bilan mulohaza qildi.

— Biz iqtisodiyotimizni rivojlantirib, aholi jon boshiga daromadlarni oshirish, ish joylarini ko‘paytirishga harakat qilaymiz. Andijonda ham katta rejalarimiz bor. Bunda avvalo, sizlarga tayanamiz. Har bir bilimli yoshi — Vatan himoyachisi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ta‘lim tizimidagi yangiliklar, yosh avlodga yaratilayotgan sharoitlar, ilmiy-ijtimoiy loyihalar haqida so‘z bordi. Prezident yoshlar bilan yangi tashabbuslar yuzasidan fikrlashdi. Shuningdek, ularning takliflarini qo‘llab-quvvatlab, mutasaddilarga ko‘rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari Andijon shahridagi 2-ixtisoslashtirilgan maktab-internatini ham ko‘zdan kechirdi.

Mazkur muassasa o‘tgan yili 50 milliard so‘m davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qurilgan. U 504 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, 5-11-sinflarda aniq va tabiiy fanlarni chuqur o‘qitishga ixtisoslashgan. Maktabga

o‘quvchilar viloyatning barcha shahar va tumanlaridan imtihon asosida olinadi.

Maktab-internatda 60 dan ortiq o‘quv va kompyuter xonalari, chet tili sinflari, laboratoriya mavjud. Shuningdek, 222 o‘rinli yotoqxona, oshxona, sport zali zamonaviy jihozlangan.

Prezidentimiz shu yerda o‘qituvchilar bilan suhbatlashdi. Maktabning yuqori sinflari bilan oliygoh dasturlari o‘rtasida uzviylikni ta‘minlash, bir-birini takrorlaydigan darslarga yoshlarning vaqtini ketkazmasdan, ko‘proq amaliyotga yo‘naltirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Umuman, maktablarga ta‘lim, tarbiya va ma‘naviyat bo‘yicha yangi muhit olib kirish kerakligi ta‘kidlandi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Andijon shahrida bunyod etilayotgan Universal sport majmuasini borib ko‘rdi.

Hozirda to‘rt ming tomoshabiniga mo‘ljallangan yopiq zal qurilgan. Unda bir nechta sport turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish mumkin bo‘ladi. Jumladan, joriy yil kuzda futbol bo‘yicha jahon chempionatining ayrim o‘yinlari shu yerda o‘tkaziladi.

Yirik majmuada basseyn, kafe, restoran ham bo‘ladi. Mashhur sportchilarning mahorat maktablari uchun ham sharoit yaratiladi. Mashg‘ulotlar sport federatsiyalari va oliy ta‘lim maskanlari bilan bog‘langan holda olib boriladi.

Majmuani samarali ekspluatatsiya qilish, zamonaviy boshqaruvni joriy etish lozimligi aytiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon shahridagi markaziy qozonxonani borib ko‘rdi.

U yaqinda imtiyozli xorijiy kredit evaziga rekonstruksiya qiliniib, Xitoyda ishlab chiqarilgan 3 ta energiya tejamkor qozonlar o‘rnatilgan. 28 kilometr issiqlik quvurlari yotqizilib, 373 dona individual issiqlik punktlari tashkil etilgan. Shuningdek, 2 ming kilovatt quvvatli transformator o‘rnatilib, yuqori kuchlanishli elektr tarmog‘i tortilgan.

Natijada shahardagi 271 ta ko‘p qavatli uy va 30 ta ijtimoiy obyekt markazlashgan issiq suv va issiqlik ta‘minotiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, bir yilda 16 million metr kub tabiiy gaz, 2 million kilovattndan ziyod elektr energiyasi tejab qolinadi.

Shu yerda 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan navbatdagi loyihalar haqida axborot berildi. Unga ko‘ra, Andijon shahridagi yana 5 ta qozonxonani rekonstruksiya qilish, 33 kilometr issiqlik quvurlarini qurish va 114 ta ko‘p qavatli uyning ichki isitish tizimlarini yangilash rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari bu loyihalarni jadal-lashtirib, aholini barqaror issiqlik bilan ta‘minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Prezidentimizning Andijon viloyatiga tashrif davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Faxriddin UBAYDULLAYEV,
O‘ZA muxbirlari

Dolzarb mavzu

G‘OLIB TARG‘IBOTNING TUG‘-U TUG‘ROSI

Hammamiz ko‘rib-bilib turibmiz, bugun dunyo shiddat bilan o‘zgarib, geosiyosiy vaziyat tobora chigallashib boryapti. Bu esa davlatlar va millatlar xavfsizligiga, insonlar ong-u tafakkuriga, dunyoqarashiga ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Ayniqsa, muqaddas tushuncha va qadriyatlarimiz ochiqdan-ochiq toptalayotgani hamda intizomsizlik, boqimandalik, befarqlik, loqaydlik, xudbinlik, manfaatparastlik illatlarining tobora ortib borishi barchamizni xavotirga soladi.

Negativ (destruktiv) targ‘ibot butun dunyoni qamrab olmoqda. Bu targ‘ibotning maqsadi ijtimoiy adovat uyg‘otish, ma‘naviy muhitni buzish, nizolar keltirib chiqarish, vaziyatni keskinlashtirishdan iborat. Shu


maqsadda yoshlarga destruktiv, radikal g‘oyalar, yolg‘on maslaklar va qarashlar singdirilmoqda.

Bu esa bizdan yanada ogoh va qat‘iyatli, birdam va yurt ishiga daxldor bo‘lishni talab qiladi. Odamlarga yangicha qarash va sinalmagan g‘oyalarni singdirib, yangidan velosiped kashf etish emas, avvalo, milliy tarbiyamizdan yiroqlashmaslik tamoyilini qator toptirish muhimroq, deb hisoblaymiz.

“Insof” deganingiz nima?”

Odami o‘zi tushunmaydigan so‘zdan ta‘sirlanmaydi, o‘z xatti-harakatini o‘zgartirmaydi. O‘zbek tarbiyasi mazmunidan joy olib, o‘zaro munosabatlarda namoyon qilinishi lozim bo‘lgan insoniy fazilatlarini ifodalovchi so‘z va iboralar mavjud. Masalan, bir vaqlar “tavoz”, “ibo”, “hayo”, “vijdon”, “mehr-oqibat” kabi so‘zlar faol qo‘llanilgan milliy ma‘naviyatimizning yuksak cho‘qqiga ko‘tarilganidan dalolat beradi.

Davomi 3-betda





O'ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

KIBERGIGIYENA

INSON SHA'NI VA QADR-QIMMATIGA TAHDIDLARNI KAMAYTIRADI

Komron NIGMATOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti sho'ba mudiri

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi bilan mutanosib ravishda ayrim fuqarolar o'z sha'ni va qadr-qimmatini, yuridik shaxslar esa ishbilarmonlik obro'siga qilingan tajovuzlar qurboniga aylanmoqda. Xo'sh, ayrim nopok shaxslar sha'n, qadr-qimmat va ishbilarmonlik obro'siga qanday usullar bilan putur yetkazaypti? Bu borada yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qanday kafolat va huquqiy himoya mexanizmlarini nazarda tutadi? Shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida qanday chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda?

Garchi shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini Konstitutsiya va boshqa qonunlar bilan himoya qilinsa-da, ammo uning aniq tushunchasi qonunchilikda ochib berilmagan. Shu bilan birga, sud amaliyoti va ilmiy nuqtayi nazardan olganda, sha'n bu insonning jamiyat tomonidan baholanishi, qadr-qimmat esa fuqaroning o'zini o'zi baholashidir. Sodda qilib aytganda, sha'n bu atrofdagi insonlarning siz haqingizdagi fikri bo'lsa, qadr-qimmat ularning fikridan qat'i nazar, o'zingiz haqidagi fikringiz hisoblanadi.

Konstitutsiyamizda sha'n 9 marta, qadr-qimmat esa 11 marta qayd etilgan. Jamiyat hayotining eng muhim masalalarini qamrab olgan bunday oliy hujjatda bu tushunchalarning ko'p takrorlanishi bejiz emas. Mazkur holat

davlatning bu boradagi huquqiy siyosatini ko'rsatib beradi. Konstitutsiyaning 13- va 26-moddalariga ko'ra, insonning sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat, ular daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas.

Fuqarolik kodeksining 100-moddasiga asosan, fuqaro o'zining sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan sud yo'li bilan raddiya talab qilishga haqli. Bunda ma'lumotlarni tarqatgan shaxs oldiga birgina shart, ya'ni bunday ma'lumotlar haqiqat ekanini isbotlashi kerak bo'ladi. Agar u sudda tarqatilgan fikrlar haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, yetkazilgan zarar va ma'naviy ziyonni qoplashga majbur bo'ladi.

Hayotimizda eng ko'p uchrayotgan sha'n, qadr-qimmatni badnom qiluvchi jiddiy tahdidlar qatoriga onlayn shantaj va kiberbullinglar kiradi. Masalan, yaqinda telegram ijtimoiy tarmog'ida kanallardan biri orqali ayollarning foto va videolarini tarqatgan fuqarolarga hukm o'qildi. Onlayn shantajda shaxslarning foto va videolarini barcha uchun ochiq bo'lgan kanalga joylashtirib, ma'lum pul evaziga o'chirib tashlash taklif etiladi.

Kiberbulling deganda raqamli makonda, ya'ni Internetda xabarlar yoki sharhlarda haqoratli yoki boshqa badnom ma'lumotlar tarqatish, shaxsiy ma'lumotlarni nashr etish (masalan, sizning manzilingiz, telefon raqamingiz, fotosuratlaringiz) yoki boshqa tahdidli postlar (sizga jismoniy yoki moddiy zarar yetkazish bilan qo'rqitish va h.k.) qoldirish tushuniladi.

Feyk (soxta) yangiliklar va dezinformatsiya ham sha'n, qadr-qimmatga jiddiy putur yetkazadi. Bunda elektron axborot vositalari va boshqa manbalar orqali odamlar haqida yolg'on ma'lumotlar tarqatiladi. Bu holat, o'z navbatida, ularning obro'siga salbiy jihatdan jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Soxta yangiliklar nafaqat jismoniy shaxslar, balki kompaniya va tashkilotlarga ham zarar yetkazadi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda axloqsiz xatti-harakatlarni sodir etish ham sha'n, qadr-qimmatni buzish, deb topilishi mumkin. Masalan, ayrimlar ijtimoiy tarmoq yoki forumlarda boshqalarni haqorat qilish, kamsitish, tuhmat qilish bilan shug'ullanadi va bu ishlarni odatda

anonim tarzda qilishga urinadi. Bu esa nafaqat odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini buzilishiga, balki jamiyatda salbiy muhit yaratilishiga olib keladi.

Yuridik shaxslar, xususan, tadbirkorlik subyektlarining sha'ni, qadr-qimmatini emas, balki ishbilarmonlik obro'si mavjud, aynan u Konstitutsiya bilan qo'riqlanadi. Ayrim shaxslar vijdonsiz harakat qilib, raqobatchilarni obro'sizlantirishi mumkin. Bunda masalan, xo'jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish maqsadida bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatish Jinoyat kodeksining 192-moddasi bilan javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Putur yetkazuvchi ma'lumotlar deganda, ayrim fuqarolar yoki jamoat fikrida amaldagi qonunlarga va axloq qoidalariga rioya qilish nuqtayi nazaridan qaraganda sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini oyoq osti qiluvchi, obro'ni to'kuvchi ma'lumotlar tushuniladi.

Shu bilan birga, fuqaroning ishdagi kamchiliklari, jamoat va ish joylaridagi yoki turmushdagi fe'l-atvorini tanqid qiluvchi, haqiqatga to'g'ri keladigan ma'lumotlarni sud orqali rad etish haqidagi talablar asossiz, deb topilishi mumkin. Ya'ni bunday da'vo qanoatlantirilmaydi. Xuddi shunday shaxsning kamchiliklarini uning o'ziga shaxsan aytish (uchinchi shaxslar ishtirokisiz) sha'n, qadr-qimmatini buzish deb topilmaydi. Biroq bunda haqorat yoki tuhmat alomatlar bo'lmasligi lozim.

Demak, sha'n, qadr-qimmat yoki ishbilarmonlik obro'sini buzilgan, deb topish uchun uchta shart kombinatsiyasi — ma'lumot aniq badnom qiluvchi bo'lishi, u tarqatilishi va haqiqatga mos kelmasligi kerak. Agar da'vo talablari ushbu shartlarga javob bersa, unda fuqarolik ishlari bo'yicha sudda yutib chiqish imkoniyati yuqori bo'ladi.

Bunda, tarqatish deganda ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida chop etish, xizmat ta'rifnomalarida bayon etish, ko'pchilik oldida so'zlaganda, mansabdor shaxslar nomiga yozilgan arizalarda yoki boshqa, shu jumladan, og'zaki bo'lsa ham bir necha shaxsga yoxud bir kishiga xabar qilish tushuniladi.

Qonun bilan berilgan yana bir huquqiy himoya kafolati da'vo muddati bilan bog'liq. Qonunga ko'ra, umumiy da'vo muddati 3 yil. Ammo bu muddat sha'n, qadr-qimmat yoki

Putur yetkazuvchi ma'lumotlar deganda, ayrim fuqarolar yoki jamoat fikrida amaldagi qonunlarga va axloq qoidalariga rioya qilish nuqtayi nazaridan qaraganda sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini oyoq osti qiluvchi, obro'ni to'kuvchi ma'lumotlar tushuniladi.

ishbilarmonlik obro'sini himoya qilishga nisbatan tatbiq etilmaydi. Boshqacha aytganda, shaxs haqida 20 yil oldin unga putur yetkazuvchi ma'lumotlar tarqatilgan bo'lsa ham, sud bunday huquqlarni himoya qilish bilan bog'liq da'voni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi va rad etolmaydi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvinii tashkil etish bo'limida fuqarolarda "kibergigiyna"ni, jumladan, Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish, shuningdek, "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi"ni muntazam o'tkazish belgilab qo'yilmoqda. Mazkur band bevosita "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 87-maqsadi, ya'ni huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlarini, qadr-qimmatini va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunga kelib, inson sha'ni, qadr-qimmatga nisbatan tajovuzlarning ko'paygani sababli qonun bilan uni jinoyat qonunchiligi orqali himoya qilishni kuchaytirish ehtiyoji tug'ildi. Shu bois, 2023-yil 11-apreldan boshlab shaxs tanasining yalang'och holdagi foto yoki videolarini uning roziligsiz (shu jumladan, Internet orqali) tarqatish yoki ularni tarqatish bilan qo'rqitish BHM 600 barobarigacha jarima (204 million so'm) yoki boshqa jazolar qo'llanilishiga sabab bo'lishi belgilandi.

Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga ko'ra, xotiniga yoki eriga, sobiq xotiniga yoki sobiq eriga, bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga

olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash 10 sutkagacha ma'muriy qamoq qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Xuddi shu harakatlarni takroran sodir etish esa jinoyi javobgarlikni keltirib chiqarib, ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki boshqa jazolar qo'llanilishiga asos bo'ladi.

Mavzuga doir xorijiy tajriba ham e'tiborga loyiq. Sir emas, O'zbekiston qonunchiligi romano-german huquq oilasiga mansub bo'lib, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Fransiya davlatlari qonunchiligi bilan o'xshash hisoblanadi. Ushbu davlatlarda sha'n va qadr-qimmatni tahqirlaganlik uchun xuddi bizning qonunchilik kabi fuqaroviy va jinoyi javobgarlik belgilangan.

Anglosakson huquq tizimida (AQSH, Angliya, Kanada va h.k.) bu turdagi ishlar diffamatsiya (lot. diffamatio, ya'ni tuhmat qilish) tushunchasi bilan bog'liq, bu turdagi ishlar kam uchraydi. Masalan, AQSHda mashhurlar ko'pincha bunday da'vo bilan chiqishsa-da, sudda qiyinchiliklarga duch keladi. AQSH Oliy sudi agar da'vog'ar javobgarning "yomon niyatlarini" isbotlay olmasa, uning da'vosi rad etilishini ko'rsatib o'tgan. Amaliyotda esa bunday maqsadni isbotlash deyarli imkonsiz, hattoki AQSHning eng boy milliarderlari ham sudda odatda yutqazib qo'yadi.

Mashhur fransuz yozuvchisi Pyer Boshen ta'biri bilan aytganda, sha'n xuddi qimmatbaho toshga o'xshaydi: eng kichik dog' ham uning yoshiga mahrum etadi va butun qiymatini tushiradi.

Umuman olganda, bu yilga mo'ljallangan davlat dasturi loyihasida belgilangan vazifalarni sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish insonlarning sha'ni va qadr-qimmatini, yuridik shaxslarning ishbilarmonlik obro'siga bilib-bilmasdan bo'layotgan tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Yangilik

YOMG'IR SUVIDAN BOY BO'LAYOTGAN "OROL"LIKLAR YASHASHNI BILADI

Termiz tumani mamlakatimiz janubida joylashgan, ikki davlat — Tojikiston va Afg'oniston bilan chegaradosh. O'rta Osiyodagi eng sersuv daryolardan biri Amudaryoning Termiz yaqinidan oqib o'tar qismida bir nechta orol yuzaga kelgan. Daryo ikkiga ajralib, ma'lum maydonda quruqlik hosil qilib, yana qo'shilib ketavergan. Bu orollarda odamlar yashagan. Ular asrlar davomida daryodan aholining u qirg'oqdan bu qirg'oqqa o'tishiga ko'maklashib, qo'noqlik joyidan foyda olib kun kechirgan. O'tgan asrning 50-60-yillarida qo'shni davlat bilan chegarada ma'lum murakkabliklar yuzaga kelavergach, "orol"liklar Termiz tumani hududiga ko'chirilgan va mahalla ham "Orol" nomi bilan atalgan.

Bugun u tumandagi eng obod va farovon mahallalardan biri. Aholisining suyaqi mehnatda qotgan, ishning ko'zini biladi. Tumanda azaldan "Orol"liklar yashashni biladi, degan gap yuradi. Mahalla aholisi bu ta'rifga mehnati ortidan erishgan. Mahalla aholi hudud imkoniyatidan kelib chiqqan holda, ilgari asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan.



Keyingi yillarda qishloq xo'jaligiga qaratilayotgan e'tibor ortidan o'z tomoniga issiqxona tashkil etib, yaxshigina daromad olayotganlar soni ham sezilarli darajada oshdi.

Masalan, Akmal Hakimov 9 sotix yer maydonida issiqxona tashkil etgandi. Mehnati ortidan o'zining orzu-havaslariga yetdi. Yaxshigina daromad topib, uy-joy qildi.

Termiz tumanida suv bilan bog'liq muammo bor. Akmal Hakimov shu muammoni o'z qurbi va qobiliyati bilan yengib o'tib, ko'pchilikka o'mak bo'lishga ham erishdi.

Chilangarlik va ustachilikdan xabari bor Akmalning halovatini o'g'irlagan uslub bugun obihayot bilan bog'liq muammo yechimida asqataypti. U yerga singib ketadigan yomg'ir suvidan samarali foydalanish bo'yicha tasavvurlarini amaliyotda, o'z tomoniga tatbiq etdi.



Masalan, bir soat yoqqan yomg'irdan 8 ming litrlik sig'imli hovuzini to'ldirib, tomoniga ehtiyojiga ishlatadi. Shuning ortidan issiqxonada tomlchilatib sug'orish texnologiyasini ham samarali yo'lga qo'ygan.

— Tomdan tushadigan suvni to'rt tonnalik maxsus hovuzga yig'amiz. U beton ariq orqali ikkinchi hovuzga kelib tushadi. Keyin issiqxonaga tomlchilatib sug'orishga yo'naltiriladi. Bunday aylanma uslubdagi amaliyotni mahalladagi yana 5 ta xonadonga qurib berdim, — deydi Akmal Hakimov, — Yomg'ir suvi minerallarga boy bo'lgani uchun pomidor ko'chatlarini 3 martagacha o'g'itsiz sug'oraman.

Yaqinda Prezidentimiz raisligida qishloq xo'jaligida yangi zaxiralarni ishga solish hamda 2024-yilgi ustuvor vazifalar yuzasidan

o'tkazilgan videosektor yig'ilishida o'tgan yili agrar sohada ishlab chiqarish 4.1 foiz o'sib, 426 trillion so'mni tashkil qilgani, eksport esa qariyb 2 milliard dollarga yetgani, 152 ming gektar bog' va tokzorlar barpo qilingani ta'kidlandi. Bunday raqamlar yaqin tariximizda hech qachon bo'lmagan. Joylarda biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar evaziga mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyati vujudga kelmog'ga.

Yildan-yilga suv tanqisligi bilan bog'liq muammolar kuchayib borishi-yu, uning salbiy ta'sirini yumshatishga doir targ'ibot tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi natijasida xonadonlarda muammo yechimiga oid amaliy tashabbuslar ko'zga tashlanmoqda.

Shu tumanda yashovchi Boboyor Xolboyev ancha yillar oldin tomoniga 3 sotix yerda issiqxona tashkil etib, oilasi uchun qo'shimcha daromad manbai shakllantirgan dehqonlardan. Uzoq yillar davomida ko'chatlarni faqat poytaxtdan olib kelgan Boboyor aka issiqxonasini kengaytirib, ko'chatchilikni yo'lga qo'yish, o'zi kabi dehqonlarning og'irini yengil qilish ishtiyoqi bilan harakat qildi.

— Izlanish odami o'z ishini ustasi qilarkan. Boshqa viloyatdan ko'chat keltirganda, voha iqlimini hisobga olish kerakligini angladim. Ko'chatchilikda ustozlarim Toshkent shahridan. Ular keyinchalik ishimni kelib ko'rganida, to'g'ri gap, bizdan ham o'tib ketibsan-ku, deb hayratlangan, — deydi Boboyor Xolboyev.

Bugun uning 33 sotixli issiqxonasida 450 ming dona pomidor, 100 ming bodring, 100 ming bulg'or qalampiri, 20 ming dona baqlajon nihollari, 20 xildagi 400 mingga yaqin gul, 40 ming qovun-tarvuz ko'chatlari parvarishlanmoqda. E'tiborli tomoni, bu yerdan ko'chat olayotganlar yillar sinovida toblanib, bugun tajribali mutaxassisga aylangan omilkor dehqonning yaqin maslakdoshiga aylanayotgani ham bor gap.

Muxtasar aytganda, agrar sohada olib borilayotgan islohotlar samarasi eng chekka manzillarga ham yetib boryapti. Avvalgidek, faqat qog'o'zda va amalga oshirilishi mavhum loyihalar emas, xalq ichidan olingan, amaliyotdan o'tgan tashabbuslar tufayli yuqoridagi qahramonlarimiz kabi dehqon-u mirishkorlarning "ketmoni uchgan".

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Obod manzillar



"BU QADAR O'ZGARISHLAR BO'LISHINI TASAVVUR HAM QILMAGANDIK"

Toshkent tumanining 100 yildan ortiq tarixga ega Qir-ariq mahallasidagi yo'llarni bugun tanib bo'lmaydi. Yozda tuproq, qishda loy bo'ladigan o'ydim-chuqur yo'llar hozir ravon, soz. 30-40 yildan buyon ham ta'mirlanmagan yo'llarning bugungi holati kishini quvontradi.

Bulaming barchasi mahalla ahli "Tashabbusli budget"da faol bo'lgani orqasidan amalga oshdi. Qir-ariqliklar 2023-yilda ikki marta "Tashabbusli budget" loyihasida eng ko'p ovoz to'pladi va mahalla obodligiga yo'l ochildi.

— Toshkent tumanida 70 ta mahalla bor. Keyingi yillarda hududimizda keng ko'laml o'zgarishlar yuz berdi, — deydi tuman hokimi matbuot kotibi Dilafruz Ismoilova. — Jumladan, o'tgan yilning o'zida tumanimizda 93 ta obyektga qurilish ishlari bajarilib, shulardan 73 tasi foydalanishga topshirildi. Uchta yangi bog'cha, ikkita madaniyat uyi ishga tushdi. Bu ishlarga jami 200 milliard so'm sarflandi. Tumandagi ko'p qavatli 30 ta uyga xizmat ko'rsatuvchi "Issiqlikmanbai" Keles filialining markaziy qozonxonasi rekonstruksiya qilinib, xorijdan keltirilgan zamonaviy isitish tizimlari o'rnatildi.

Qir-ariqliklarning aytishicha, Qir-ariq va E'zoz mahallalarida toza ichimlik suv umuman bo'lmagan. Odamlar suvni olisdan tashib ichgan.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 25 oktabrdagi "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

qarori ijrosi doirasida 2 mingdan ziyod aholi yashaydigan E'zoz mahallasiga ichimlik suv quvuri tortildi.

Mahallaning Furqat ko'chasida yashovchi, 13 nevara va 5 evraning buvisi Mavluda Eshonqulova 74 yoshda.

— Shu yoshimgacha suvni olisdagi hovuzdan tashib ichardik, — deydi onaxon. — Endi esa xonadonimizgacha quvur tortildi. Odamlarimizning quvonchini ko'rsangiz. Chunki ular suvning qadriini biladi.

240 mingdan ziyod aholi yashaydigan mazkur tumanning kundan-kunga yangilanib, chiroq ochib borishida "mahalla yetilligi"ning ham xizmatlari bor.

— Yo'llar ta'mirlanib, ichimlik suv tanqisligi, elektr energiyasi bilan bog'liq muammolar yillar davomida fuqarolarni qiynab kelgani rost, lekin endi hammasi butunlay boshqacha, — deydi "E'zoz" mahalla fuqarolari yig'ini raisi Shuhrat Shoyunusov. — Qisqa muddatlarda mahallalarimizning qiyofasi yangilandi, muammolar joyida ijobiy yechim topmoqda. O'zimiz ham juda qisqa vaqtda bu qadar o'zgarishlar bo'lishini tasavvur qilmagandik.

Gulichehra DURDIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Dolzarb mavzu

G‘OLIB TARG‘IBOTNING
TUG‘-U TUG‘ROSI

Otabek BOZOROV,
falsafa fanlari bo‘yicha
falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda

Lekin xalqimiz tarixining keyingi asrlarida sodir bo‘lgan mustamlakachilik, milliy fazilatlarining “qoloqlik”, “madaniyatsizlik ko‘rsatkichi”, “eskilik sarqiti” deya qadrsizlanishi yuqoridagi tushunchalarni o‘zbek maktabi darsliklari matnidan siqib chiqardi. Natijada milliy fazilatlarini anglatuvchi tushunchalar boshqa tildagi so‘zdek, tushunarsiz qolaverdi.

Misol tariqasida yozuvchi Ibrohim Rahimning kuzatuvlaridan bir parcha keltirsak: “... Ko‘pgina yoshlarimiz insof nimaligini bilish u yoqda tursin, bu so‘zning o‘zini ham eshitmagandek, tushunmaydi.

Eski hovlimizning ro‘parasidagi o‘rta maktabning to‘polonchi o‘quvchisi o‘zidan kichik bolani do‘pposlaganida qo‘lidan ushlab, “Insofing bormi, o‘zingdan kichik bolani urasanmi?”, desam, anqayib qoldi. Shundan keyin boshqa bir necha boladan ham so‘radim. “Bunaqa mavzuni o‘tganimiz yo‘q”, deb javob qilishdi. Shu voqeadan keyin maktablarda insof darsini o‘tish kerak shekilli, degan xulosaga keldim.

Insofli bo‘lish haqida na uyda, na maktabda va na atrofda qiladigan ta‘lim olmagan ayrim yoshlar insofsizlik qilib qo‘ygani o‘zlari anglamayapti, anglasa ham uning xunuk oqibati — gunohi to‘g‘risida mutlaqo o‘ylamayapti”.

Bu holat o‘zbek yoshlarini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan joy olgan, insoniy fazilatlar, an‘ana va urf-odatlarini ifodalovchi 1,5 mingdan ortiq so‘zlar (masalan, odamgarchilik, insof, vijdonlilik, mehribonlik va hokazo) bilan maxsus tanishtirib borishni taqozo qiladi. Aks holda, bu so‘zlarning iste‘moldan chiqib ketishi, natijada insonlarda shu nom bilan ataluvchi fazilatlarining yo‘qolib borishi xavfi kuchayishi ehtimoldan xoli emas.

Biz milliy fe‘l-atvorimiz — xarakterimizni o‘zgartirishimiz, ya‘ni taraqqiy ettirishimiz lozim.

Biz axborot
bozoridamiz

Bu nima degani? Bu axborot soniya, daqiqa, soat, kun sayin o‘zgarib, yangilanib turishini anglatadi. Ayni paytda yoshlarimizni, xalqimizni o‘zimiz axborot bilan qamrab olmasak, boshqalar qamraydi, egallaydi, degani.

Yaqinda Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishiga tayyorgarlik doirasida targ‘ibot-tashviqot ishlarining sifati va aholi qanday qamrab olinayotgani tahlil etildi. Ochiq‘ini aytganda, ish bugungi kun talablariga javob bermaydi.

Bunga sabab, **targ‘ibotda an‘anaviy, offlayn, ya‘ni joylarga borib, faqatgina tadbirlarga taklif qilingan 30-40 kishining oldida ma‘ruza qilib, qo‘shiq aytish yetakchilik qilmoqda.**

Biz faollar zalida 100 kishini to‘plab an‘anaviy tadbir o‘tkazayotgan paytda Facebook, Instagram, YouTube, TikTok

kabi ijtimoiy tarmoqlarda 100 minglab (balki millionlab) yoshlar “tarbiyalanmoqda”.

Bu esa bugun ma‘naviy-ma‘rifiy sohada eng katta xavf va bo‘shliq ham shu yerda ekanini ko‘rsatmoqda. Achinarlisi, yoshlarning ba‘zilari yangicha nuqtayi nazarga nisbatan juda toqatsiz. Ilmni pesh qilib dindorlar his-tuyg‘usini kamsitish yoki ayrim diniy voizlardan ta‘sir lanib, dunyoviylikni mensimaslik holatlari uchramoqda.

Chunki aksariyat yoshlar asosiy bo‘sh vaqtini ijtimoiy tarmoqlar, virtual axborot maydonida o‘tkazayotgan bir paytda bizda ular bilan ana shu yo‘nalishda samarali ishlash tizimi mavjud emas.

Buzg‘unchi targ‘ibot
nima qilyapti?

Ular o‘tirgan joyida vatan-doshlarimizning millionlab ko‘rish (“prosmotr”)lariga, hatto maqto (“layk”)lariga erishyapti. Eng achinarlisi, mahalliy saytlarda ham yoshlarning ongi, ruhiyati, axloqiy tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi materiallar joylashtirilmoqda.

Bizdagi onlayn, raqamli targ‘ibot yoshlar, aholi qalbiga chuqur kirib bora olmayapti. Vaholanki, bizda yuz minglab offlayn va onlayn targ‘ibot armiyasi bor.

Nega bizning media mahsulotlarni ko‘rayotgan auditoriya o‘rtacha 10-20 mingdan oshmayapti? Hozir media maydonga qarasangiz, yoshlarni buzishga, milliy qadriyatlarimizni obro‘sizlantirishga, milliy madaniyatimizni, tilimizni qadrsizlantirishga qaratilgan tahdidlarni ham ko‘ramiz. Ular asosan, raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilyapti.

Bu holatlar mamlakat ijtimoiy-ma‘naviy muhiti barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi buzg‘unchi g‘oya va tahdidlarga qarshi yangicha yondashuvlarni shakllantirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarni
egallay olamizmi?

Ha, albatta. Masalan, poytaxtning o‘zida targ‘ibotda foydalanishimiz mumkin bo‘lgan 10 ta telekanal va 3 ta radiokanal mavjud. Shu bilan birga, 45 ta sayt va 100 dan ortiq telegram kanali, 15 ta rasmiy jurnal va 15 ta rasmiy gazeta bor.

Bularning imkoniyatidan bemalol foydalanishimiz mumkin-ku!? Qolaversa, ularning o‘zi shu maqsadga xizmat qilish uchun tashkil etilgan.

Shu bilan birga, targ‘ibot vositasi sifatida: — ommaviy axborot vositalari (televizioniye va radio, jurnal va gazetalar, rasmiy internet saytlari);

— ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Facebook, Instagram, YouTube, Odnoklassniki, TikTok);

— tarqatma materiallar (buklet, flayer, plakat — devoriy lavha, tabriknoma va taklifnomalar);

— bosma va elektron monitorlar (transport va bekatlar, ko‘cha, bozor va do‘konlardagi monitor; barcha turdagi bannerlar);

— kitob, o‘quv qurollari va anjomlari, hunarmandchilik mahsulotlari;

— mahsulotni qadoqlash materiallari;

— ommaviy tadbirlar (konsertlar, umumxalq bayramlari va davlat ramzlari bo‘yicha tadbirlar, ma‘rifat soatlari, ishlash chiqarish yig‘ilishlari, ma‘naviy-ma‘rifiy

targ‘ibot tadbirlari va tanlovlar, to‘ylar va boshqa marosimlar, barcha turdagi marafonlar, sport-sog‘lomlashtirish tadbirlari)dan ham unumli foydalanish mumkin.

Ana shu vositalardan yagona bir tizim asosida unumli va samarali foydalanish muhim va zarur.

Masalan, “Bolajon” telekanalida “Fazilatnoma”, “Nurafshon” telekanalida “Tarixga muhrlangan so‘zlar”, “Kinoteatr”da “Teatr

Nega bizning media mahsulotlarni ko‘rayotgan auditoriya o‘rtacha 10-20 mingdan oshmayapti? Hozir media maydonga qarasangiz, yoshlarni buzishga, milliy qadriyatlarimizni obro‘sizlantirishga, milliy madaniyatimizni, tilimizni qadrsizlantirishga qaratilgan tahdidlarni ham ko‘ramiz. Ular asosan, raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilyapti.

— ibratxonadiri”, “Madaniyat va ma‘rifat”da “Istiqlolli avlod”, “Mahalla”da “Mo‘jazgina vatanim”, “Sport” telekanalida “Betakror tuyg‘ular” hamda “Yoshlar” telekanalida “Baxt qasi” ko‘rsatuvlarini tayyorlab, doimiy efigra uzatishni yo‘lga qo‘ysa bo‘ladi.

Shu kabi “Mahalla” radiokanalida “Quloqqa chalingan gaplar”, “Ona tuprog‘i” va “Mahalla nima deydi?”, “Yoshlar”da “Menda fikr bor”, “To‘xtab qolma”, “O‘zbekiston” radiokanalida “O‘lan to‘shak” va “Pedagog minbari” kabi eshittirishlarni tashkil qilish yaxshi samara berishi shubhasiz.

Xuddi shu singari vazirlik va idoralarning ijtimoiy tarmoqlardagi kanal va saytlarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar haqida “Vijdon ishi”, “Bir mavol sharhi”, “Olamni mahliyo aylagan diyor”, “O‘zbekim, o‘zligim”, “Elga manzur”, “Taraqqiyot timsollari” va “Vatanni sevishtirish mas‘uliyati” kabi mavzularda rukn ochish mumkin.

Yoki targ‘ibot ishlarini amalga oshirish uchun targ‘ibotchi yetishmaydimi? Bu masalada ham muammo yo‘q. Mamlakatda bugun rasman ma‘naviyat uchun mas‘ul xodimlar soni 40 mingdan ortiqni tashkil etadi.

Ammo hali ma‘rifiy targ‘ibot borasidagi vazifalarni umumiy ishga aylantira olmayapmiz. Hamma o‘zi bilan o‘zi ovora. Vazirlik va idoralar o‘rtasida mazkur masala bo‘yicha ijtimoiy hamkorlik sezilmayapti.

Ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot ishlarini faqat Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi qiladi, degan odam adashadi, deya bejizga ta‘kidlamadi davlatimiz rahbari. Shu ma‘noda, sohaga mas‘ul bo‘lgan idora va tashkilotlarning oldida turgan eng asosiy

vazifa — hozirgi tezkor axborot maydonida ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibotni qanday qilib zamonaviylashtirish, jadallashtirish mumkin, degan savolga javob topishdan iborat bo‘lib turibdi.

Avvalo, milliy kontent sifatini yanada yaxshilash, ta‘lim, ilmiy-ma‘rifiy, yoshlar ehtiyojlariga mos zamonaviy axborot resurslarini yaratish va targ‘ib qilish mexanizmlarini ishlash chiqish kerak.

O‘zbekiston mafkura maydonini “Raqamli targ‘ibot” bilan to‘ldirish uchun nimalar qilish zarurligini belgilab olish lozim.

Nimalarga e‘tibor
qaratish kerak?

Avvalo, har bir targ‘ibot materiali fuqarolarning yoshiga mos holda — bolalarga, yoshlarga, o‘rta yoshlilarga alohida-alohida tayyorlanishi zarur.

Ijtimoiy tarmoqlarda (*Telegram, YouTube, Instagram, Facebook, Odnoklassniki*) salbiy tendensiyalarga barham berishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot kanallarini ochish hamda targ‘ibot materiallarini tayyorlab, ularni ommalashtirish maqsadida jozibador va qiziqarli dasturlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, ma‘naviy yo‘nalishlarimiz iqtisodiy yo‘nalishlardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarni, dasturlarimiz amalga oshadi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot ishlarini bo‘yicha har bir vazirlik va idora tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan aniq vazifalar belgilab olinishi talab etiladi. Shuningdek, hamkor tashkilotlar notiqlik va liderlik qobiliyatiga ega yoshlar, iqtidorli talaba va doktorantlar, davlat stipendiatlaridan iborat targ‘ibot guruhlarini tashkil qilib olish zarur.

Islohotlar targ‘ibotida targ‘ibotchi sifatida ishtirok etadigan sohaning salohiyatli va notiqlik qobiliyatiga ega mutaxassislari ro‘yxatini shakllantirib, ulardan targ‘ibot ishlarida samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilsa,

maqsadga muvofiq bo‘lardi. Ularga sohada erishilgan eng muhim yutuqlar to‘g‘risidagi targ‘ibot materiallarini tayyorlab berish kerak.

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tomonidan ishlab chiqilgan raqamli targ‘ibot mahsulotlarini keng targ‘ib qilish maqsadida vazirlik va idoralarga tegishli barcha saytlar va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga beg‘araz joylashtirib borilishini yo‘lga qo‘yish ham qamrovni kengaytirishga yordam beradi.

Xorijiy davlatlarning axloqiy tarbiya hamda targ‘ibot-tashviqot yo‘nalishdagi siyosati va ilg‘or tajribasini o‘rganish bo‘yicha ijodiy safarlar tashkil etib, 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan alohida reja-jadval ishlash chiqish kerak.

Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk davlat arboblari, sarkardalar, dunyo ilm-faniga katta

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va umumta‘lim maktablarini targ‘ibot vositalari bilan bezash bo‘yicha yangicha yondashuvdagi alohida uslubiy tavsiyalar tayyorlash lozim.

Shu bilan birga, tarbiyalanuvchilar, o‘quvchi va talabalarni vatanparvarlik, davlat ramzlariga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan hamkorlikdagi tanlov va intellektual o‘yinlar o‘tkazish ham yaxshi samara beradi.

Oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan ta‘lim-tarbiya maslahatchilari — tyutorlarning talabalar bilan olib boriladigan axloqiy tarbiyaviy ishlar hamda “Axborot va murabbiylik soati”ni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlash chiqilishi zarur.

Milliy qadriyatlar, ma‘naviyat va ma‘rifat hamda tarbiyaviy ishlarni targ‘ib qilishga



hissa qo‘shgan allomalarining ibratli hayot yo‘li, boy ilmiy merosini keng targ‘ib qilish bo‘yicha 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan milliy dastur ishlash chiqilishi lozim.

Milliy o‘yinchoqlarni maqsadli va rejali ishlash chiqarishni yo‘lga qo‘yish va shunday mahsulotlar ishlash chiqargan tadbirkorlarga turli imtiyozlar berish amaliyotini joriy etish ham yaxshi natija beradi.

Raqamli targ‘ibot mahsulotlarini ishlash chiqarish, joriy qilish va samaradorligi bo‘yicha monitoring olib borish ham muhim vazifalardan biridir.

Ko‘rsatuv, eshittirish, klip, qo‘shiq, she‘r, maqola va boshqa ijodiy ishlarning milliy ma‘naviyatimizga ta‘sir darajasini o‘rganish hamda bu haqdagi tahliiliy ma‘lumotlar asosida yangi takliflar ishlash chiqish tizimini yo‘lga qo‘yish kerak.

Tashqi targ‘ibot vositalari mazmuni, soni, sifati va jozibadorligini zamon talablariga moslashtirish hamda ularni eng ommabop, ko‘rishga qulay va aholi serqatnov bo‘lgan joylarga joylashtirish choralarini tashkil qilish talab etiladi.


qaratilgan ko‘rsatuv, eshittirish, ruknlar va intellektual o‘yinlar soni va sifatini oshirishga alohida e‘tibor qaratish kerak.

Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar targ‘ibotiga bag‘ishlangan maxsus dasturlarni tayyorlab, muntazam ravishda taqdim etib borilishini yo‘lga qo‘yish ham targ‘ibot ishida muhim masala hisoblanadi.

Va nihoyat, reja-jadval asosida har ikki haftada bir marta ikkita hudud va bitta vazirlik yoki idoraning ma‘rifiy targ‘ibot ishlariga doir hisobot va taqdimotlarini eshitib borish lozim.

Umid qilamizki, bu kabi ezgu ishlarni amalga oshirish yoshlar milliy g‘ururini yuksaltirishga, nima yaxshiy nima yomonligini, kimga ergashib, kimdan uzoq yurish kerakligini bilib olishiga yordam beradi. Otabobolariga sodiq bo‘ladi. Oq-u qorani tanib, tafakkuri chaxlanadi.

Biz bugun ovozi bo‘g‘iq millat emasmiz, qaddimiz tik. Olg‘a odimlayapmiz. Yuk-salayotgan millatning tutumi qattiq bo‘lib, zaminidan buzg‘unchi g‘oyalarni supurib tashlay oladi.



Yana bir tarixiy inshoot — Farhod gidroelektr stansiyasi. Uning qurilishi Ikkinchi jahon urushining eng ogʻir davrlariga toʻgʻri kelgan. Qizigʻi shundaki, 1- va 2-agregatlar eskirgani bois, 1960-yil may va avgust oylarida Germaniyadan keltirilgan 30 ming kVtgacha kuchliroq yangi qurilmalar bilan almashtiriladi. Oʻsha paytda GESning umumiy quvvati 126 ming mVtga teng boʻlgan. Lekin yillar oʻtishi bilan mavjud quvvat (1- va 2-gidroagregatlar 22 MVtdan, 3- va 4-gidroagregatlar 30 MVtdan) 104 MVtga tushib qolgan edi.

2024-yil 16-fevral, 34-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

“Yashil” energetika



SALKAM TO‘QSON YILLIK USKUNALAR

ish unumdorligiga katta ta’sir
ko‘rsatardi, endi-chi?

Dastlabki o‘rganishlarga ko‘ra, yurtimizdagi gidroenergetika salohiyati **8 ming MVtni** tashkil qiladi. Lekin hozir buning **2200 MVtni** ishlatilmoqda, xolos. Sohaga xorijiy investitsiya va xususiy sektorni jalb qilib, 2030-yilga qadar jami quvvatlarni **6 ming MVtga** yetkazish belgilangan.



Abdurauf QORJOVOV,
iqtisodiy sharhlovchi

— Ushbu GESning dastlabki quvvati 4 MVt boʻlsa-da, uzoq yillar davomida ekspluatatsiya qilingani sababli 2 MVtga pasayib qolgan edi, — deydi “Boʻzsuv GESlar kaskadi” unitar korxonasi rahbari Dilshod Xayrullayev. — Oʻtgan yili modernizatsiya ishlari yakuniga yetkazilgandan soʻng inshooting energetik quvvati 6 MVt va yiliga oʻrtacha 44,4 million kVt-soatni tashkil etmoqda. Kaskadimiz toʻrtta kichik gidroelektr stansiyadan iborat. Uning uchinchisi ham modernizatsiya qilinib, quvvatiga quvvat qoʻshildi. Umuman, ayni paytda yagona tizimga 198,3 million kVt-soat elektr energiyasi yetkazib beryapmiz.

2020-yilda Chirchiq-Boʻzsuv suv-energetik traktidagi Uchinchi Qodriya GESida, “Quy Boʻzsuv GESlar kaskadi” unitar korxonasi tarkibidagi 14-inshootdagi yangilashlar tufayli ularning quvvati yanada oshdi. Chunki 87 yil mobaynida baholi qudrat ishlab kelayotgan GESning 4 ta agregati samaradorligini yoʻqotib, taʼmirlash muhtoj boʻlib qolgandi. Bu yerda 2017-yil dekabr oyida qurilish ishlari boshlab yuborildi. Qariyb uch yil mobaynida investitsiyaviy loyihalar asosida bosqichma-bosqich modernizatsiya qilindi. Modernizatsiyadan keyin GESning umumiy quvvati 15,34 MVtga yetdi, yillik oʻrtacha elektr energiyasi ishlab chiqarish koʻrsatkichi 124 million kVt-soatni tashkil etyapti.

— “Quy Boʻzsuv GESlar kaskadi” unitar korxonasi tarkibidagi 14-inshootdagi elektr qurilmalari 75-yildan ortiq vaqt mobaynida moddiy va maʼnaviy jihatdan eskirib, keyingi yillarda ishlamay qolgan edi, — deydi “Oʻzbekgidroenergo” AJ matbuot xizmati rahbari Ravshan Boyqulov. — Modernizatsiya natijasida stansiyada 1 ta qurilma oʻrniga har birining quvvati 7,5 MVtdan, umumiy quvvati 15 MVtga teng 2 ta gidroagregat oʻrnatildi. Yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish miqdori 90,1 million kVt-soatni tashkil etdi va uch yildan ortiq vaqt mobaynida 50-60 mingga yaqin xonadonning elektr energiyasiga ehtiyojini qoplab kelyapti.

Toshkent GESlar kaskadining 9-gidroelektr stansiyasida ham yangilash ishlari bajarildi. Bu har kuni Toshkent viloyatidagi 60-70 mingga yaqin xonadonni elektr energiyasi bilan taʼminlashga zamin yaratdi.

Boʻzsuv GES-1ning eski binosi yonida qad rostlagan yangi stansiyada turdosh “bobo”-lari savlatiga qaraganda ancha yil kichik, lekin quvvati yuqori zamonaviy agregatlar oʻrnatildi. Avvalgilari mexanik tarzda boshqarilgan boʻlsa, yangilari kompyuterlar yordamida inson omilisiz tun-u kun ishlaydi. Kaskad tarkibidagi GESlarning faoliyati ham shu yerdan kuzatib boriladi va boshqariladi. Qancha elektr hosil qilayotgani, har bir agregat qanday maromda ishlayotgani ekranda koʻrinib turadi.

Ayni kunda bu yerda boʻlsangiz, qariyb yuz yil davomida elektr quvvati yetkazib bergan yirik agregatlarni koʻrishingiz mumkin. Ular oxirgi paytlar qanday ishlagan boʻlsa, shundayligicha saqlab qoling. Mutaxassislar aytishicha, ularga suv oqimini yoʻnaltirishingiz bilan elektr quvvati ishlab chiqarishni boshlaydi. Gidroenergetika sohasida tahsil olayotgan yoshlar, umuman, xodimlar uchun bu jonli tarix. Shu bois, bu yerni muzeyga aylantirish taklifi ilgari surilmoqda.

Yana bir tarixiy inshoot — Farhod gidroelektr stansiyasi. Uning qurilishi Ikkinchi jahon urushining eng ogʻir davrlariga toʻgʻri kelgan. Qizigʻi shundaki, 1- va 2-agregatlar eskirgani bois, 1960-yil may va avgust oylarida

Germaniyadan keltirilgan 30 ming kVtgacha kuchliroq yangi qurilmalar bilan almashtiriladi. Oʻsha paytda GESning umumiy quvvati 126 ming MVtga teng boʻlgan. Lekin yillar oʻtishi bilan mavjud quvvat (1- va 2-gidroagregatlar 22 MVtdan, 3- va 4-gidroagregatlar 30 MVtdan) 104 MVtga tushib qolgan edi.

Uzoq yillar doimiy ekspluatatsiya qilinishi tufayli GESdagi koʻplab uskunalar jismoniy va maʼnaviy eskirgani hisobga olinib, inshootni modernizatsiya va qayta texnik jihozlash ishlari bajarildi. Buning uchun 58,27 million yevro yoʻnaltirildi. 2019-2020-yillarda 3- va 1-gidroagregatlar, 2021-2022-yillarda 4- va 2-gidroagregatlar toʻla yangilandi. Natijada jami quvvat 128,2 MVtga yetdi. Shu tariqa Farhod GESi oʻtgan yil oktabr oyi boshida yangi kuch va yuqori quvvat bilan ishlay boshladi.

Odatda modernizatsiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlar yangilanadi. Biroq ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalar rivoji tufayli jamiyat ham taraqqiyotning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan pogʻonaga oʻtadi. Falsafiy talqinda ifoda etganda, miqdor oʻzgarishlari tub sifat oʻzgarishlariga aylanadi. Oʻzbekistonda gidroenergetika sohasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan loyihalar ham aynan shu maqsadlarga qaratilgan.

Surxondaryo tomonlarda

Oʻtgan yili mamlakatimizdagi eng yirik Chorvoq GESidan keyingi oʻrinda turuvchi — modernizatsiyadan soʻng quvvatlari yangilangan Toʻpalang GESi foydalanishga topshirildi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanida Isfara mikroGES-1 quvvat bera boshladi. U gidroenergetikamizdagi dastlabki milliy GES hisoblanadi. Sababi, Oʻzbekistonda ilk bor mazkur gidroinshoot doirasidagi barcha, jumladan, loyihalashdan tortib, asbob-uskunalar oʻrnatishgacha boʻlgan ishlar toʻliq mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan bajarildi. Jamiyat tarkibidagi “Suvsanoatlash” Ajda ushbu inshoot uchun zarur jihozlar ishlab chiqarildi.

Toʻpalang suv ombori sigʻimi 2017-2021-yillarda 500 million kub metrga yetkazildi. Hozir toʻgʻonning balandligi 185 metr, uzunligi 410 metr, uski qismining eni 10 metr dan iborat.

— Davlatimiz rahbari 2019-yil bahorida inshootdagi modernizatsiya jarayoni bilan tanishar ekan, stansiyada navbatdagi ikkita yangi gidroagregat qurish yuzasidan koʻrsatma bergandi, — deydi “Toʻpalang gidroelektr stansiyasi” unitar korxonasi rahbari Asror Ulugʻov. — Stansiyani modernizatsiya qilish investitsiya loyihasi ijrosi boʻyicha ishlar 2020-2023-yillar davomida bajarildi. Uning qiymati 84,4 million AQSH dollariga teng boʻlib, shundan 46,1 million dollari oʻz mablagʻimiz, 38,3 million dollari davlat kafolati ostidagi kreditlar hissasiga toʻgʻri keldi.

Shu asosda har biri 72,5 MVtdan iborat boʻlgan ikki agregat oʻrnatildi. Oʻtgan yilning mart oyidan qoʻshimcha 145 MVt “yashil” energiya ishlab chiqarila boshlandi. Boshqaruv toʻliq avtomatlashtirildi va inson omilisiz ishlaydigan “aqli” tizim joriy etildi.

Umuman, Toʻpalang daryosida Toʻpalang GES hamda uning quyi qismida joylashgan va faoliyat yuritayotgan Zarchob-1 va Zarchob-2 GESlari bilan mavjud quvvatlar 251 MVtga, oʻrtacha yillik ishlab chiqarish 667 million kVt-soatga yetdi. Buning hisobiga qoʻshimcha qariyb 890 ming aholini elektr energiyasi bilan taʼminlash barobarida yillik 180 million kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish imkoniyati vujudga keldi.

— Lekin bu koʻrsatkichlar daryoning gidroenergetika salohiyatidan toʻliq foydalanilayapti, degani emas, — deydi “Oʻzbekgidroenergo” AJ boshqaruv raiisi Abduqʻani Sanginov. — Chunki yana qoʻshimcha quvvatlar qurish mumkin. Shu

loyiha asosida umumiy 25,8 MVt yangi quvvatlar ishga tushiriladi.

Oʻtgan yili umumiy quvvati 75 MVt, yillik elektr salohiyati 300 million kVt-soatga teng “Surxondaryo viloyati Toʻpalang daryosida Mizot va Kishut GES qurilishi” loyihasi doirasida 17,3 kilometr avtoyoʻl qurildi, ogʻir texnika uchun 10,6 kilometr yoʻl ochildi va loyihaning geologik qidiruv va gidrogeologiya ishlarga kirishildi.

Soha mutaxassislari xulosasiga koʻra, Toʻpalang suv omboridagi suv ekologik toza, ichishga yaroqli hamda tarkibiy jihatdan inson organizmi uchun qator foydali mineralarga boy. GESlar agregatini aylantirgan suvlar ham tabiiy jihatdan tozaligini yoʻqotmaydi. Bu xususiyatlar, oʻz navbatida, Surxondaryo



viloyati aholisi uchun muhim boʻlgan yana bir oʻta yirik ijtimoiy loyihani tatbiq etish imkonini beryapti.

Prezidentimizning Toʻpalang suv omboridan ichimlik suv tarmogʻi tortish toʻgʻrisidagi koʻrsatmasiga muvofiq, ayni kunlarda viloyatning 11 ta tumanida amaliy ishlar avjida. Bu juda murakkab loyiha boʻlib, dastavval Toʻpalang suv omborining quyi qismida bosimni soʻndirish, suvni tozalash va tarqatish inshootlarini qurishga toʻgʻri kelyapti. Shundan soʻng suv avval asosiy inshootga quyiladi, keyin esa magistrall quvrga uzatiladi. Yaʼni suv omboridan tumanlardagi suv taqsimlash tarmoqlarigacha jami 361 kilometr quvvur tortiladi. Buning natijasida Sariosiyo, Denov, Shoʻrchi, Qumqoʻrgʻon, Jarqoʻrgʻon, Bandixon, Qiziriq, Sherobod, Angor, Muzrabot, Termiz tumanlari va Termiz shahridagi jami 1,7 million aholining suv taʼminoti yaxshilanadi.

Hamkorlik istiqbollari

Yaqinda Prezidentimizning Xitoyga davlat tashrifi doirasida “Oʻzbekgidroenergo” AJ delegatsiyasi mazkur mamlakatning qator hamkor moliyaviy muassasalari hamda yirik energetik kompaniyalari vakillari bilan uchrashuvlar oʻtkazdi. Xususan, “China National Technical Import and Export Corporation” (CNTIEC), nufuzli “Sinosure” sugʻurta kompaniyasi, CNTIEC bank va Eksimbank rahbariyati bilan mulqotlarda oʻzaro hamkorlikdagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish boʻyicha manfaatli kelishuvlarga erishildi. Bular orasida “Katta Andijon kanalida kichik GESlar kaskadi qurish (Kugay-1 (6,3 MVt), Kugay-2 (3,1 MVt), Beshqoʻrgʻon GES (2,6 MVt)” loyihalarini moliyalashtirish masalalari bor.

Shuningdek, “Dong Fang”, SMEK, “Zhejiang Jinlun Electromechanic”, “Bank of China Limited” kompaniyalari rahbariyati bilan muzokaralar chogʻida “Surxondaryo viloyati

shahrida joylashgan, elektr energiyasi ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashga ixtisoslashgan. 2023-yil oktabr oyida “Oʻzbekgidroenergo” AJ bilan kompaniya oʻrtasida “Bir makon, bir yoʻl” sammitida quvvati 600 MVt boʻlgan “Toshkent viloyati Boʻstonliq tumanidagi Yuqori Pskom GTESI qurilishi” loyihasini hamkorlikda amalga oshirish yuzasidan kelishuv imzolangan.

Oʻzbekistondagi gidroenergetika Guangdong muzofotidagi “Shenchjen” gidro toʻplash elektr stansiyasi loyiha maydonida boʻldi va bu yerdagi jarayonlar bilan yaqindan tanishdi. Ushbu stansiyaning quvvati 1200 MVt boʻlib, u Xitoy tajribasi va zamonaviy texnologiyalari asosida amalga oshirilmoqda. Bu yerdagi jarayonlar bilan tanishuv va tajriba almashish “Oʻzbekgidroenergo” AJ delegatsiyasi uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. “China Southern Power Grid International” kompaniyasi bilan zamonaviy loyihalarini Oʻzbekistonda amalga oshirish boʻyicha fikr almashildi. Tomonlar bu boradagi amaliy harakatlarni yoʻlga qoʻyishga qaratilgan “Yoʻl xaritasi”ni imzoladi.

Xitoyning gidroenergetika sohasida 60-yildan ortiq tajribaga ega boʻlgan “Zhejiang Jinlun Electromechanic” kompaniyasi bilan hamkorlikda Oʻzbekistonda Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan, quvvati 2-15 MVtgacha boʻlgan gidroagregatlar ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilgan. Mazkur xorijiy kompaniya nafaqat respublikamiz, balki qoʻshni Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Afgʻoniston kabi davlatlar uchun ham gidroagregatlar ishlab chiqaradi.

Bundan ikki yil oldin “Oʻzbekgidroenergo” AJ va Hindistonning “MACLEC technical project laboratory” kompaniyasi bilan oʻzaro anglashuv memorandumini imzolangan edi. Memorandum import hajmini qisqartirish va mamlakatimizda kichik va mikroGESlar uchun gidroagregatlar “Made in Uzbekistan” milliy brendi asosida ishlab chiqarilishi yoʻlidagi huquqiy asos boʻlgan edi. Mazkur hujjatga asosan, agregatlar “Suvsanoatlash” AJ zavodida tayyorlanmoqda.

Prezidentimizning 2018-yil 28 noyabrda qarori doirasida Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikda ikkita kichik GES qurilishi hamda Chorvoq GESi faoliyati xavfsizligini oshirish loyihalarini moliyalashtirish uchun 20-yil muddatga 55,8 million yevroga teng loyiha oʻz samarasini bera boshladi.

Gidroenergetika sohasida xalqaro hamkorlik tobora kengayib bormoqda. Xususan, Janubiy Koreyaning “Tae-Chang NET Co” kompaniyasi bilan Toshkent va Samarqand viloyatlarida joylashgan, umumiy quvvati qariyb 30 MVt boʻlgan beshta gidroelektr stansiyani modernizatsiya qilishda ishtirok etish loyihasi ustida ishlanyapti. Kompaniya gidroelektr stansiyani modernizatsiya qilishning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni boshladi.

Eng arzon tannarx shu tizimda

Gidroelektr stansiyalar kunlik energiyani barqaror taʼminlashda eng samarali manba. Ulardan olinadigan elektr tannarxi ham boshqa manbalarga nisbatan ancha arzon. Shu bois, sohani rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilyapti. Keyingi olti yarim yil ichida mamlakatimizda GESlarning umumiy soni 2017-yildagi 37 tadan 58 taga hamda ularning ishlab chiqarish quvvati 1856 MVtdan 2233 MVtga yetkazildi, qoʻshimcha qariyb 400 MVt quvvat yaratildi.

Dastlabki oʻrganishlarga koʻra, yurtimizdagi gidroenergetika salohiyati 8 ming MVtni tashkil qiladi. Lekin hozir buning 2200 MVtni ishlatilmoqda, xolos. Sohaga xorijiy investitsiya va xususiy sektorni jalb qilib, 2030-yilga qadar jami quvvatlarni 6 ming MVtga yetkazish belgilangan. Buning uchun huquqiy, iqtisodiy sharoitlar yaratilgan. Jumladan, kichik va mikroGESlar qurish istagidagi tadbirkorlarga yerni 20-yilga ijaraga berish, ular ishlab chiqargan elektrni davlat tomonidan kafolati sotib olish tizimi joriy qilingan.

— Davlatimiz rahbari oʻtgan yil 31-oktabr kuni oʻtkazgan yigʻilishda gidroenergetika sohasidagi loyihalarining hozirgi holati muhokama qilingan edi, — deydi “Oʻzbekgidroenergo” AJ boshqaruv raiisi Abduqʻani Sanginov. — Unda 2030-yilni kutmasdan, 2024-2028-yillarda gidroenergetika quvvatini 6 ming MVtga (2,7 barobar), oʻrtacha yillik ishlab chiqarishni 7 milliard kVt-soatdan 17 milliard kVt-soatga yetkazish boʻyicha 5-yillik dastur ishlab chiqish va buning uchun sohaga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiya jalb qilish zarurligi taʼkidlandi. Toldiqsoy, Mullalak, Qorongʻi toʻgʻay, Yuqori Pskom hamda Norin yirik GESlarini qurish loyihalarini doirasida esa texnik-iqtisodiy asoslar ishlab chiqishni yakunlash va xorijiy investorlarni jalb qilish vazifasi qoʻyildi.

Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan, quyosh stansiyalarining keng koʻlamda qurilishi hisobiga energetika tizimida rostlovchi quvvatlarni yaratishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Quyosh, shamol va energiya hosil qiluvchi boshqa manbalardan bir vaqtda ishlashi oqibatida ishlab chiqarish quvvatlari pasayishiga sabab boʻladi. Bu davrda esa GESlar tomonidan rostlovchi quvvatlar ishga tushirilishi ayni muddao boʻlib, elektr energiyasi taʼminoti barqarorligini taʼminlaydi.

Jamiyat ana shu maqsadda umumiy qiymati 2 milliard dollar, quvvati 1200 MVtga teng 2 ta gidrotoʻplash elektr stansiyasini (Xoʻjakent va Yuqori Pskom) qurishni rejalashtirgan. Bu kabi muhim ahamiyatga ega yirik loyihalar mamlakatimizda ilk bor amalga oshirilayotganini inobatga olib, ularning texnik-iqtisodiy asosnomasini tayyorlash boʻyicha sohada boy tajribaga ega boʻlgan nufuzli xorijiy hamkorlar jalb etiladi.

2024-yilda umumiy quvvati 17 MVtdan 18 ta mikroGES loyihasini amalga oshirish moʻljallangan. Sohada kechayotgan bu kabi oʻzgarishlar iqtisodiy taraqqiyotni taʼminlash, xalqimiz farovonligini oshirish yoʻlidagi islohotlarga tayanch vazifasini oʻtamoqda.

Xalqaro aloqalar

Hozirgi vaqtda davlat va hokimiyat idoralarida ko‘p hollarda kadrlar salohiyatidan foydalanish, ularning vazifa va vakolatlari taqsimoti oqilona va samarali yo‘lga qo‘yilmagani sezilmoqda. Oliygo‘hlarining ilmiy kengashlariga dunyoning nufuzli oliygo‘hlaridan yetakchi professorlarni jalb qilish vaqti keldi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

CHIN HAMKORLIK —
YEVROPADAN XITOYGACHA

Jahonning nufuzli oliy ta‘lim muassasalari, tadqiqot markazlari va soha yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyat yuritadigan, katta ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish salohiyatiga ega korxonalar bilan hamkorlik bugungi kunning asosiy talablaridan biri. Bu kabi munosabatlarning afzalligi shundaki, u ta‘lim muassasalariga o‘qitish sifatini yangi darajaga ko‘tarish, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish va xorijlik talabalarni ko‘proq jalb etish imkonini beradi. Qolaversa, xalqaro akademik tajriba eng yangi ilmiy izlanish va texnologiyalardan foydalanishga zamin yaratadi.

ta‘minlaydigan mutaxassislar bo‘lib yetishishiga umid qilyapmiz. Zero, yurtimiz to‘qimachilik sanoatining salohiyati o‘ta yuqori. Yetuk kadr va texnologiyalar bu salohiyatni ro‘yobga chiqarishga mustahkam zamin yaratadi.

Institut oldiga qo‘yilgan maqsadlardan yana biri korxonalarda talab yuqori kadrlarni tayyorlashdir. Buning uchun nazariy va amaliy bilimlarni birdek berib borish joiz.

Hozir 1672 talabamiz poytaxtimiz bo‘ylab yetmishdan ortiq korxonaga dual ta‘lim asosidagi amaliy darslarga jalb etilgan.

Joriy yilning yanvar oyida institutimiz delegatsiyasi Turkiyada bo‘lib, qator korxonalar bilan hamkorlik o‘rnatdi. Jumladan, nafaqat Turkiyada, balki butun dunyoda noyob dizayni va sifati bilan tanilgan “PUNTO leather and fur” korxonasi bilan to‘qimachilik instituti talabalarining yozgi ta‘tilida kasbiy amaliyot o‘tashi masalasi ko‘rib chiqildi. Bundan tashqari, “De tasarim” korxonasi hamda “LAESTE” tashkilotlari ham o‘zbek talabalar uchun eshiklari hamisha ochiqligini ta‘kidladi. Ushbu korxonalarda yoshlarimiz charm buyumlarni

bo‘lgan talabalar bilan yaqindan tanishdi. Ushbu loyihani qo‘llab-quvvatlash maqsadida AQSHning USAID jamg‘armasiga tegishli MST — Bozor tizimlarini o‘zgartirish loyihasi vakillari hamkorlik memorandumini imzolashni rejalashtirmoqda.

Dual ta‘lim sohasida Germaniyaning ellik yillik boy tajribasini o‘rganish asnosida har qanday talaba korxonalarga amaliyot o‘tashga qo‘yilmasligi ayon bo‘ldi. Sababi, nazariy bilimni yaxshi o‘zlashtirilmagan yoki sohaga yetarlicha qiziqish bildirmagan talaba korxona jihozlariga shikast yetkazishi yoki tengdoshlariga xalaqit berishi mumkin. Shu bois, nazariy bilimlar mustahkamligi, talabalar sohaning eng so‘nggi ilmiy yangiliklari va innovatsiyalaridan xabardor bo‘lishi uchun jahonning eng ulkan ilmiy bazasi — Scopus bilan ham hamkorlik aloqalari o‘rnatilmoqda.

Institutimiz delegatsiyasining Birlashgan Arab Amirliklariga safari chog‘ida Amirlikdagi Amerika universiteti (AUE) professori Muhammad al-Husayn bilan hamkorlikda joriy yilning oktabr oyida Scopus xalqaro ilmiy

Davron VAHOBOV,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti rektori

Bu kabi istiqbolli natijalarga erishish yo‘lida Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ham o‘z oldiga qator maqsadlarni qo‘yib kelmog‘da.

Xususan, o‘tgan bir yil mobaynida institut xorijdagi qator oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik memorandumlarini imzoladi. Institutda o‘tkazilayotgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda mazkur ta‘lim muassasalari vakillari faol ishtirok etib kelmog‘da.

Institutda xalqaro talabalar kontingentini jalb qilishga ham jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Bugun bu yerda Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Turkmaniston va rossiyalik talabalar tahsil olayotgani sababi shunda.

Keyingi yillarda 300 dan ortiq professor-o‘qituvchi hamda 305 talaba Italiya, Fransiya, Latviya, Janubiy Koreya, Xitoy, Gretsiya, Gruziya, Turkiya, Hindiston, Rossiya, Belarus, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston kabi ko‘p-lab davlatlarga akademik almashinuv, malaka oshirish, stajirovka, amaliyot va tajriba almashish maqsadida yuborildi. Mazkur davlatlar OTMLaridan 193 professor-o‘qituvchi va mutaxassis o‘quv jarayonimizga jalb etildi.

Prezidentimizning 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, institutda Turkiya, Germaniya va boshqa davlatlarning oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda to‘qimachilik sanoatida talab yuqori mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha qo‘shma ta‘lim dasturlarini joriy etish belgilangan edi. Shu rejaga asosan, joriy yilning ilk haftalarida institut delegatsiyasi Izmir shahridagi Ege universitetida bo‘lib, Toshkentda uning filialini ochish masalasini muhokama qildi.

Bundan oldin esa Xitoyning Changshu texnologiyalar universiteti bilan “2+2” talabalar almashinuv dasturi imzolanib, joriy o‘quv yili boshida 11 talaba Xitoyga yuborildi. Ular to‘qimachilik muhandisligi yo‘nalishi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallamoqda.

To‘qimachilik muhandisligi yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, eksport salohiyatini oshiradi. Masalan, Italiya, Turkiya va Xitoy to‘qimachilik mahsulotlarini eng ko‘p eksport qiluvchi davlatlar bo‘lib, bu ularga katta daromad olish va iqtisodiy rivojlanishga samoviy kiritish imkonini bermoqda. Birgina Xitoy bu sohadan har yili qariyb 200 milliard dollardan ortiq daromad ko‘radi.

Bugun Xitoyda o‘qiyotgan talabalarimiz mamlakatimiz iqtisodiyotida bu sohada keskin o‘sishini

El-yurt umidi

Temurbek USMONOV,
Markaziy bank Kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish metodologiyasi departamenti boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

O‘zimni tanibmanki, yaqinlarim e‘tiborida, g‘amxo‘rligida o‘sdim. O‘qishdagi yutuqlarim haqida doimo birinchilardan bo‘lib ota-onam, bobo-yu buvilarim bilan bo‘lishgim kelar ekan, ularning ko‘zidagi umid va ishonch menga yanada ko‘proq kuch bag‘ishlar edi. Bobomning har gal “Bolam, senga ishonaman, hali, albatta, eng yaxshi dargohlarda ta‘lim olasan, el-yurtga foydasi tegadigan inson bo‘lib ulg‘ayasan”, deb niyat qilgani hamon yodimda. Xuddi shu ishonch rivojlanishdan to‘xtashga haqqim yo‘qligini eslatib turadi.

E‘TIBOR RAHBAR SIFATIDA
SHAKLLANISHIMGA
ZAMIN YARATDI

Toshkent moliya institutini muvaffaqiyatli tamomlab, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ish boshladim. Bank tizimi regulatorydagi faoliyat olib borar ekanman, undagi yuqori bilim va tajribaga ega bo‘lgan kadrlar, shuningdek, Jahon banki hamda Xalqaro valyuta jamg‘armasi mutaxassislari bilan yaqindan ishlash, bilim orttirdim, mutaxassis sifatida o‘z ishiga erishdim. Professional kadr sifatida rivojlanishimni keyingi bosqichga olib chiqish uchun menda yetishmayotgan bilimlar, ilmiy salohiyat va ko‘nikmalar haqida o‘zim uchun xulosalar chiqardim, shu jarayonda magistraturani o‘qishim zarurligini angladim.

Ishni sifati ta‘lim tizimi bilan ajralib turuvchi AQSH, Yevropa va Kanada universitetlari haqida ma‘lumot yig‘ishdan boshladim. Biroq zamonaviy bank tizimi ildizi Buyuk Britaniyaga borib taqalishi, hozir ham London jahon bank-moliya tizimi poytaxti ekani e‘tiborimni aynan shu mamlakatga qaratdi. Bundan tashqari, onam ingliz tili o‘qituvchisi bo‘lgani bois, bolaligidan mazkur mamlakat shaharlari, boy tarixi va madaniyati haqida muayyan tasavvurga ega edim. Buyuk Britaniya men uchun ma‘lum darajada ajralib turardi. Ushbu mamlakatdagi universitetlarni o‘rganar ekanman, Birmingem universiteti alohida e‘tiborimni qozondi. Buyuk Britaniyaning eng ilg‘or ilmiy hamda yuksak akademik mavqega ega ta‘lim dargohlari guruhiga (Russel Group) kiruvchi mazkur universitetni ko‘plab e‘tiborli shaxslar, jumladan, bir qator Nobel mukofoti sovrindorlari, davlat rahbarlari tamomlagan.

Albatta, chet elda ta‘lim olishni rejalashtirib, universitetga qabul qilinish — bu katta yutuq, ammo aksar hollarda eng katta muammo moliyaviy masalalarda o‘z aksini topadi. Buyuk Britaniya dunyoning yashash xarajatlari eng qimmat mamlakatlari qatoriga kiradi. U yerda universitetlarda o‘qish uchun zarur moliyaviy resurslar ham mutanosib ravishda yuqori hisoblanadi. Shu sababli, bu mamlakatda o‘qishim uchun menga moliyaviy tomonidan ko‘mak bera oladigan grant dasturlari haqida ma‘lumot yig‘ar ekanman, “El-yurt umidi” jamg‘armasi grantini o‘zim uchun kashf qildim. Ushbu dastur ko‘plab rahbar kadrlarni shakllantirish, eng imkoniyatlar taklif etishi bilan e‘tirofga sazovor.

Iqtisodiyotda risklarni “diversifikatsiyalash”, ya‘ni taqsimlash tushunchasi mavjud. Shu ma‘noda, men ham risklarni teng taqsimlash maqsadida “El-yurt umidi” jamg‘armasi grantidan tashqari, Buyuk Britaniyaning Chevening dasturi grantiga ham hujjat topshirdim va har ikki grant tanlovida g‘oliblikni qo‘lga kiritdim. O‘z kelajagim va professional faoliyatimni O‘zbekiston bilan bog‘laganim sababli aynan yurtim uchun kadrlar yetishtirishni o‘ziga bosh maqsad qilgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi grantini tanlashni to‘g‘ri qaror, deb bildim. Hozirgi kunga kelib, aytishim mumkinki, jamg‘arma tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy ko‘mak o‘zining miqdori va ko‘lami jihatiga ko‘ra, boshqa mamlakatlarda o‘xshashi yo‘q.

Buyuk Britaniyada o‘qish davomida o‘zim uchun mutlaqo yangi akademik muhitni kashf etdim. Birinchi semestr men uchun ma‘lum darajada murakkabroq o‘tdi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Darslarga o‘zim uchun an‘anaviy tarzda tayyorgarlik ko‘rar ekanman, yangi mavzularni tushunishda qiyinchiliklar sezardim. An‘anaviy deganda o‘qituvchi tomonidan berilgan resurslar doirasida o‘qish-o‘rganishni nazarda tutaymman. Akademik talablar va muhitdan shuni anglab yetdimki, professor-o‘qituvchilar ma‘lumot va bilimning asosiy manbasi emas. Ularni mavzu bo‘yicha umumiy yo‘nalish hamda tushunchalarni, qo‘shimcha resurslarga havolalarni beruvchi professional konsultantlar sifatida ta‘riflagan bo‘lar edim. Akademik talablarni bajarish

uchun talaba faqat mustaqil o‘qishga (self-study) tayanishi lozim. Bunda darsda o‘rganilgan har bir soatga kamida ikki-uch soat mustaqil o‘qish, izlanish to‘g‘ri keladi.

Universitetning 1800 kishiga mo‘ljallangan kutubxonasiga borar ekanman, har safar bo‘sh o‘rinlar taqchilligidan joy topishga kamida 15-20 daqiqa vaqt sarflar edim. Barcha o‘z ustida ishlash, mustaqil rivojlanish bilan ovora, tashqi dunyoga chalg‘imaydi. 24 soat talabalar uchun xizmat ko‘rsatuvchi kutubxonalarda topshiriq va imtihonlarga kecha-kunduz tayyorlanadigan tolibi ilmlar ham ko‘p.

Topshiriqlarni bajarar ekanman, o‘qituvchilar mendan asoslanmagan subyektiv qarashlar emas, balki mavzu bo‘yicha mavjud va tan olingan tadqiqotlar, maqolalarda qo‘llanilgan metodlar, ishonchli ma‘lumotlar, ular asosida bajarilgan empirik tahlillarim va asoslantirilgan xulosalarimni kutishlarini angladim.

Universitetning odob-axloq hamda etika qoidalariga kelsak, mening e‘tiborimni tortgani bu ko‘chirmakashlikka (plagiariizm) murosasizlikdir. Inson boshqaning mehnatini hurmat qilishi lozimligi, biroving so‘rovizis yoki unga havola keltirmasdan ishidan foydalanish,

ya‘ni ko‘chirmakashlik o‘g‘rilik bilan barobar ekani maktab davrlaridan singdiriladi. Qayd etish lozimki, universitet tomonidan ko‘chirmakashlikni aniqlash bo‘yicha axborot tizimlari puxta yo‘lga qo‘yilgan, agar kimdir mazkur qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ysa, u talabalar safidan chiqarilishi muqarrar.

Ikki semestr davomida moliyaviy va iqtisodiy sohadagi bilimlarimni boyitdim, eng muhimi, avvaldan o‘zimning eng katta kamchiliklarimdan deb bilgan ekonometrik va ilmiy tahlil qilishga oid salohiyatimni oshirdim. O‘qish yakunlangach, ilmiy rahbarim bilan maslahatlashib, O‘zbekiston qatori rivojlanayotgan mamlakatlar uchun aktual, biroq hali ko‘p tahlil qilinmagan mavzuni tanlashga qaror qildim. Markaziy bankdagi faoliyatimdan kelib chiqib, banklarni tartibga solish tizimining murakkablik darajasi hamda mamlakatdagi moliyaviy ommaboplik darajasi o‘rtasidagi aloqadorlikni Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa mamlakatlari misolida tahlil qildim, ma‘lum bir tavsiyalar ishlab chiqardim. Xulosalarim, bilim va ko‘nikmalarimni ke-lajakda professional faoliyatim doirasida qo‘llay olishimga ishonaman.

Xullas, Buyuk Britaniyada o‘tgan talabalik davrim nafaqat akademik, balki hayotiy taassurotlarga ham boy bo‘ldi. Bu davr mobaynida men nafaqat kadr sifatida, balki ma‘lum bir darajada shaxs sifatida ham o‘z ishiga erisha oldim deb o‘ylayman. Turli millatlarga mansub do‘stlar orttirdim, ularning madaniyatini o‘rgandim, o‘zimizning madaniyat, tarix haqida o‘roqlashdim. Bu ham diplomatiyaning bir ko‘rinishi aslida.

Xorijdagi o‘qishimni muvaffaqiyatli tamomlab, yurtimizga qaytib keldim. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish metodologiyasi departamenti boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari lavozimida ishlab kelmog‘daman. Vazifam bank nazoratiga oid umum-e‘tirof etilgan standart va tajribalarni bank tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib joriy qilishdan iborat. Hozirgi kunda jamoamiz bilan makroprudensial instrumentlar, riskka asoslangan nazoratni joriy qilish, likvidlik va kapital monandligiga doir amaldagi talablarni “Bazel III” standartlariga yanada moslashtirish bo‘yicha ishlamoqdami.

Rejalaringa kelsak, bilim va ko‘nikmalarim asosida mamlakatimizda nafaqat bank barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan, balki tizimga yangi moliyaviy texnologiyalar, yechimlar joriy qilinishini ta‘minlay oladigan maqbul reguliyator rejim yaratilishiga o‘z hissamni qo‘shmoqchiman.



Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

konstruksiyalash, tikuv buyumlari muhandisligi va yigiruv texnologiyalari kabi yo‘nalishlar bo‘yicha eng yetakchi mutaxassislardan ko‘nikma oltirishi mumkin.

Institut amalda sinayotgan dual ta‘lim tizimining asosiy o‘ziga xosligi shundaki, auditoriyada yuqori malaka va ilmiy salohiyatga ega professor-o‘qituvchi tomonidan berilgan bilim amaliyotda sinalladi. Ta‘lim yakunigacha talaba nafaqat korxonada o‘z ish o‘mi va vazifalariga, balki karyerasidagi ilk yuqori lavozimiga ham ega bo‘lishi mumkin.

Masalan, o‘tgan yil so‘nggida institutda taniqli tadbirkorlar va 500 talaba ishtirokida davra suhbatlari o‘tkazildi. Yosh tadbirkorlar forumi doirasida bo‘lib o‘tgan ushbu uchrashuvda bo‘lajak biznes egalari qimmatli maslahatlar berildi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan yaratilgan sharoitlar sanab o‘tiladi. Institutda yo‘lga qo‘yilgan “Bir tadbirkor-uch hamkor” loyihasi asosida esa yirik korxona vakillari kelgusida ishonchli xodim, yetuk mutaxassis, zamonaviy tendensiyalaridan xabardor, yetuk bilim va tajribaga ega, istiqbolli fikrlay oladigan hamkorlar sifatida tanlab olish mumkin

anjumanini O‘zbekistonda o‘tkazishga kelishib olindi. Shuningdek, anjuman doirasida akademik soha yetakchi mutaxassislari uch oy davomida institutimiz talabalariga jahon standartlariga to‘liq javob beradigan ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yozish, axborot va uning manbalari bilan ishlash hamda fakt-checking yo‘nalishlari bo‘yicha treninglar tashkil qiladi. Seminarlardan so‘ng esa institutimizda chop etiladigan “To‘qimachilik muammolari” jurnali Scopus bazasidan joy oladi. Bu esa institutimiz tadqiqotchilari, tajribali olimlari hamda yaqinda tashkil etilgan, atrofida ilm-fanga qiziqadigan yoshlarni jamlay olgan “Yoshlar akademiyasi”da innovatsiyalar ustida bosh qotirayotgan yoshlarimizning fan sohasidagi mehnatlarini dunyoga tanitishga imkoniyat yaratib beradi.

Ta‘lim, kadrlar hamda metodika sohasini isloh qilish bilan birga, institutimizda yaqin kunlarda raqamlashtirish jarayoni ham boshlanadi. Oliy ta‘lim muassasalarini raqamlashtirish ta‘lim sifati, shaffoflik va inson resurslariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi ko‘plab afzalliklarga egadir.

Raqamli texnologiyalar yangi o‘qitish usullari, onlayn kurslar, webinarlar va elektron ta‘limning boshqa shakllaridan foydalanishni ta‘minlash orqali ta‘lim sifatini oshiradi. Bu talabalarga kengroq bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, shuningdek, kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi. Ayni jarayon institut boshqaruvi shaffofligini oshirish va barcha manfaatdor tomonlar uchun axborot ta‘minotini yaxshilashga yo‘l ochadi.

Institutni raqamlashtirish uchun Koreya xalqaro hamkorlik agentligi — KOICA tomonidan 6 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratish rejalashtirilmoqda.

Dunyoning yetakchi universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlik institutni raqamlashtirish va ta‘lim sifatini oshirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilg‘or texnologiyalar va tajribalardan foydalanish imkonini beradi. Xalqaro aloqalar milliy iqtisodiyot va mehnat bozori ehtiyojlariga moslasha oladigan qo‘shma o‘quv dasturlarini yaratishga ham zamin yaratadi.





Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi boʻlgan milliy maqom sanʼati oʻzining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy anʼanalari bilan maʼnaviy hayotimizda muhim oʻrin egallaydi. Zero, asrlar davomida ulugʻ shoir-u olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob sanʼat nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va eʼtibor qozongan.

Shunday ekan, milliy oʻzligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuygʻular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom sanʼatining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish davr talabidir. Oʻzbekistonda maqom sanʼatini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan anʼanalarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalarning merosini oʻrganish, xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom sanʼati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy oʻzlikni anglash tuygʻusini, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol topirish maqsadida yurtimizda koʻplab amaliy ishlar qilinayotgani ayni haqiqat.

Shahrisabzda oʻtkazilgan Xalqaro maqom festivali ochilish marosimida Prezidentimiz taʼkidlaganidek, “Xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli boʻlgan “Shashmaqom”, yaʼni olti maqomni, taʼbir joiz boʻlsa, olti azim daryoga qiyoslash mumkin. Bu daryolar asrlar davomida jahon madaniyat ummoniga quyilib, uni har tomonlama




Gʻayrat MAJID, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi oʻrinbosari, shoir

toʻldirib, boyitib kelmoqda... Agar biz asl, haqiqiy sanʼatni bilmogʻchi, oʻrganmogʻchi boʻlsak, avvalo, mumtoz maqom sanʼatini bilishimiz, oʻrganishimiz kerak. Agar biz sanʼatni, madaniyatni koʻtarmogʻchi boʻlsak, avvalo, mumtoz maqom sanʼatini koʻtarishimiz kerak”.

Joriy yil 10-fevral kuni poytaxtimizdagi “Maʼrifat markazi” simpoziumlar saroyida boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston Qahramoni, xalq artisti Munajat Yoʻlchiyeva ishtirokidagi ijodiy-maʼrifiy kecha ham ayni shu maqsad yoʻlida amalga oshirilayotgan egzu ishlarning uzviy davomi boʻldi.

Qiziq, negadir Munajat Yoʻlchiyeva konsertiga qadar xayolimda ustoz shoirimizning “Eshilib,

BOQIY MEROS



QIZIQ, NEGADIR MUNOJAT YOʻLCHIYEVA KONSERTIGA QADAR XAYOLIMDA USTOZ SHOIRIMIZNING “ESHILIB, TOʻLGʻONIB INGRANADI KUY, ASRLAR GʻAMINI SOʻYLAR “MUNOJOT”. KUYI SHUNDAY BOʻLSA, GʻAMNING OʻZIGA, QANDAY CHIDAY OLGAN EKAN ODAMZOT” SATRLARI AYLANDI. EHTIMOL, BU DARDLI MISRALAR SHEʼRDA “MUNOJOT” SOʻZI BORLIGI UCHUN OʻYIMGA KELGANDIR.



Maqomning YUKSAK MAQOMI

toʻlgʻonib ingranadi kuy, Asrlar gʻamini soʻylar “Munojot”. Kuyi shunday boʻlsa, gʻamning oʻziga, Qanday chiday olgan ekan odamzot” satrlari aylandi. Ehtimol, bu dardli misralar sheʼrda “Munojot” soʻzi borligi uchun oʻyimga kelgandir. Ohang, qoʻshiq, ijroning jozibasi va ularning bir butun holda inson ruhiyatiga taʼsiri xususida mulohazaga berildim. El ichida yurgan inson taniga jon kuy birla kiritilgan ekan, el ichida yuradigan soʻz nechogʻliq haqiqat ekanini his etdim. Yuksak darajadagi milliy maqom ohanglari ogʻushida yashab oʻtgan butun umrimni qaytadan yashagandek boʻldim. Bir yoni togʻ, bir yoni qir-u adirlarga tutashib ketgan qishlogʻimni, oʻsha manzillarda kechgan bolaligimni, rahmatli otamni, uning sanʼatga, adabiyotga boʻlgan muhabbatini, biz farzandlarga buni qanday singdirganini eslarkanman, koʻzimga yosh keldi.

Otam shifokor edi. Uning adabiyotga, sanʼatga mehri boʻlakcha edi. Bolaligimizda bizning uyda har doim “Sharq yulduzi”, “Yoshlik”, “Fan va turmush” kabi jumallar, gazetalar, turli kitoblar boʻlgan. Lekin otam biror marta “Mana bu kitobni oʻqi!” “Mana bu jurnalni oʻqi!” yoki “Mana bu asarni oʻqi!” deb aytganam. Koʻpincha oʻzi nimadir oʻqib oʻtirar, qiziq syujetmi, yaxshi iborami, biror qiziq voqea kelib qolsa, toʻsatdan hayajonlanib ketar va baland ovozda bizga oʻsha joyini oʻqib berardi. Keyin yana biroz oʻqib, kitobni tokchadami, xontaxta ustidami qoldirib, chiqib ketardi. Biz oʻsha kitob yoki jurnalni qiziqib toʻliq oʻqib chiqardik. Endi bilsam, oʻshanda otam bildirmasdan bizlarni kitob oʻqishga targʻib qilgan ekan.

Otam bir gal tuyqus “Buni eshitilgani!” dedi-da, Abdulla Oripovning “Qizgʻaldoq bargidek uchar dildan gʻam, Toshqinlar kiradi qalbinga manim. Bahoring muborak boʻlsin ushbu dam, Mening Oʻzbekiston — dilbar vatanim” satrlarini oʻqib berdi. Keyin “Shoir shu satrlarni bizning qizgʻaldoqzorlarni koʻrib yozgan boʻlsa kerak”, deya mulohaza qildi. Oʻshanda bu gapni ayni haqiqat, deb qabul qilganman. Yillar oʻtib, shoir bu satrlarni bizning qishloqda emas, boshqa joyda bitganini bildim. Lekin oʻsha paytda uygʻongan sheʼriyatga mehri hanuz meni tark etgani yoʻq.

Otam sanʼatni jon-dildan sevardi. Maʼmurjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Tavakkal Qodirov, Botir Zokirov, Sherali Joʻrayev, Ortiq Otajonov, Farrux Zokirovning qoʻshiqlarini yaxshi koʻrib tinglardi. Shu mehr tufayli otam menga rubob olib kelib bergan. “Mustahzod”, “Oʻxshaydi-ku” kabi qoʻshiqlarni menga aytirardi, oʻzi doirani yaxshi chalardi. Men tong sahardan turibogʻ qiladigan birinchi ishim baland ovozda qoʻshiq aytish boʻlgan. Onam kulib: “Qoʻshilari sen qoʻshiq aytishib bilan uygʻonib, ish-ishga unmayapti ekan”, der edi.

Bular bolalikdagi gaplar. Men sanʼatkor boʻlmadim. Ammo qalbmimga sanʼatga boʻlgan muhabbat tirik. Oʻzbekiston Qahramoni Munajat Yoʻlchiyeva ishtirokidagi ijodiy-maʼrifiy kecha chogʻida mana shularni esladim.

Mazkur ijodiy-maʼrifiy kecha Prezidentimizning mamlakatimizda adabiyot, madaniyat va sanʼat sohalarini yanada rivojlantirish hamda tanqili madaniyat va sanʼat namoyandalari ijodini keng ommalashtirishga oid tashabbus-

larini amalga oshirish, shuningdek, 2023-yil 22-dekabrda oʻtkazilgan Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat kengashining kengaytirilgan yigʻilishida belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlash maqsadida tashkil etildi. Ijodiy kecha davomida yurtimizda maʼnaviy-maʼrifiy sohalaridagi yuksalishlar bevosita jamiyatning boshqa sohalar taraqqiyotiga ham xizmat qilishi musiqiy, badiiy chiqishlar orqali ochib berildi.

Munajat Yoʻlchiyeva ijrosidagi “Munojot”, “Dugohi Husaynii”, “Taronai bayot”, “Ushshoq”, “Samarqand ushshogʻi”, “Ishqing oʻtigʻa”, “Tanovur”, Toʻrabek Muxtorov, Adolat Ismoilova kabi shogirdlari ijrosidagi “Qaydasan”, “Fido” kabi qoʻshiqlar yigʻilganlarga yuksak sanʼat sururini baxsh etdi. Bir soʻz bilan aytganda, Yunus Rajabiy nomidagi Oʻzbek milliy musiqa sanʼati instituti, Maqom xonandali kafedrasida sozandalari ijro etgan kuylar, filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori, tanqili navoiyshunos Olimjon Davlatovning hazrat Alisher Navoiy gʻazallari mazmuni haqidagi fikrlari, Oʻzbek milliy maqom sanʼati markazi bosh direktori, sanʼatshunoslik fanlari nomzodi, professor Soyibjon Begmatovning ijro etilayotgan asarlarning yarialish tarixi haqidagi fikrlari, Oʻzbekiston xalq artisti Abdushohim Ismoilovning chiqishi tomoshabinlarga manzur boʻldi. Qadim tarix silsilalaridan eson-omon oʻtib kelayotgan, xalqimiz orzu-armonlarining timsoli boʻlgan bebaho maqom sanʼatimiz haqidagi bilimlarimizni boyitdi.

Ijodiy-maʼrifiy kechada qatnashgan Oʻzbekiston Prezidentining maslahatchisi, atoqli yozuvchi Xayriddin Sultonovning nutqi nafaqat

kecha qahramonini, balki barcha maqom muxlislarini toʻqlantirib yubordi. Adibning oʻzi ham toʻqlinlab soʻzladi. U aksari koʻnglimizdan kechib turgan haqiqatlarni aytgani uchun ham bu soʻzlardan barcha birdek mutaassir boʻldi, deb oʻylayman. Ustoz adibning har bir jumlasini olqishlar bilan qarshilangani shundan. Prezident maslahatchisi davlat rahbari nomidan yuborilgan muhtasham guldastani kecha qahramoniga topshirarkan, uning sanʼatkor, ustoz, fidoyi fuqaro va, eng muhimi, inson sifatidagi jihatlari haqida samimiy fikrlarini izhor qildi. Bu fikrlar nafaqat bir shaxsga, balki barcha sanʼat ahliga, adabiyot ahliga bevosita taalluqlidir.

Munajat Yoʻlchiyevaning oʻrnak boʻlgulik shaxsiy fazilatlarini, bosib oʻtgan mashaqqatli ijod yoʻli, milliy maqom sanʼati ortidan erishgan maqomi, bilimi, qiziqishlari, dunyoqarashi, yurtga, xalqqa boʻlgan mehr-u muhabbati toʻgʻrisida bildirilgan taʼriflar nafaqat qiziq, balki ibrat maktabi ekanini ham ich-ichimizdan his qildik.

Aytish mumkinki, ustoz adibimiz Munajat opa haqida yozish uchun koʻngliga tugib yurgan eng ajoyib mulohazalarini oʻsha yerda biz bilan oʻrtoqlashdi. Yozuvchi odam naqadar sinchkov boʻlishini ham shu yerda yana bir bor his etdim. Munajat opaning ishxonasiga minib kelgan mashinasi, uning rangi-tusi, texnik ahvoli-gacha eʼtibor bilan kuzatganini bilib, texvimi adibimizning qalama olmogʻchi boʻlgan mavzusini kichik detallarigacha oʻrganishini angladim. Bu ham katta saboq boʻldi, desam, yangilishmasam kerak.

Munajat Yoʻlchiyevaning ustozlarga boʻlgan chuqur ehtiromi haqidagi gaplar birgina meni emas, hammamizni ham quvontirdi, ham oʻylashga majbur qildi. Zero, oʻzi suv ichgan buloqlarning qadriga yetish kerakligi ham ayni kun mavzusidir.

Rostini aytсам, Munajat Yoʻlchiyeva ishtirokidagi ijodiy-maʼrifiy kechadan xuddi qish boʻyi mudrab yongan borliq bahorda yana gul-gul ochilib yangilangani singari men ham yangilanib chiqdim. Dunyoga yangicha nigoh bilan qaray boshlaganimni sezdim. Qaniydi, bunday kechalar har kuni boʻlsa-yu, har kuni yangilansam, deb oʻyladim. Oʻylaymanki, bu aytgan gaplarim, taassurotlarim kechada qatnashgan barcha-barcha yurtdoshlarimning koʻnglidan kechgan gaplar.

Qadriyat

— Soʻzana uchun 130 metr mato ishlatilaypti. Hozirda kashaning bir qismini tikish va qolganlarini chizish ishlari ketyapti. Hammasi qoʻl mehnati bilan bajariladi. Hozir boysunlik 100 dan ortiq chevar ayol-u qizlar shu soʻzana bilan band, — deydi hunarmand Nilufar Joʻrayeva.

Hunarmand bundan avval ham yirik soʻzanalar tayyorlashga urinib koʻrib, uddalagan. Jumladan, uning ilk yirik soʻzanasi 2019-yilda Termiz shahrida oʻtkazilgan Xalqaro baxshichilik sanʼati festivalida namoyish etilgandi. Oʻsha yilning oʻzida Nilufar Joʻrayeva Qoʻqon shahrida boʻlib oʻtgan Xalqaro hunarmandchilik festivalida ham ushbu kashtachilik namunasi bilan ishtirok etgan.

Toʻgʻri, bundan besh yil muqaddam tayyorlangan soʻzana hozirgisidan biroz kichikroq edi: uzunligi 21 metr, eni 5,5 metr, ogʻirligi qariyb 70 kilo.

Oʻshanda milliy soʻzanani 30 dan ortiq mohir chevar 6 oy davomida nozik did, yuksak mahorat bilan naqshinkor qilib tayyorlagandi. Unda surxoncha serjilo naqshlar va yorqin ranglar bilan bezash uchun tabiiy usullarda boʻyalgan 16 kilodan ortiq kalava ip sarflangan.

Hozirda tayyorlanayotgan soʻzaning uzunligi 31 metr, eni esa 5 metr 20 santimetrni tashkil etadi. Ayni paytda soʻzanaga shakllarni kashtachilik yoʻnalishi bilan birlashtirish ishlari olib borilaypti. Soʻzanani kuzatar ekansiz, naqshlari bir-birini takrorlamaydi. Unda oy, quyosh ramzlari va togʻlar shakllarini koʻrish mumkin. Hunarmandning aytishicha, soʻzanada asosan, Boysun togʻlarining goʻzal va fusunkor

BOYSUNDA UZUNLIGI 31 METRLI SOʻZANA TAYYORLANMOQDA

tabiati mujassamlashtirilgan. Unda vohaga xos boʻlgan qadimgi kashtachilikning “toʻldima” yoʻnalishidan foydalanilaypti.

Toʻgʻri, zamonaviy texnologiyalar ishni tezroq bajarish imkonini beradi, lekin ularni bajarishda, avvalo, mehr bilan yondashuv boʻlgandagina, siz tayyorlagan mahsulot xaridorni oʻziga jalb eta oladi. Shu maʼnoda qoʻl mehnati bilan yaratilayotgan soʻzanaga inson mehri ham muhrlanib qoladi, kishilarni maftun etadi, ohanrabodek oʻziga tortadi.

Joriy yilning may oyi boshlarida “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali oʻtkaziladi. Unda ushbu yirik soʻzana ham namoyish etilishi

rejalashtirilgan. Surxon soʻzanasi festival tomoshabinlari, ayniqsa, xorijlik mehmonlarda katta qiziqish uygʻotishga shubha yoʻq.

Boysun tumanidagi gilamdoʻzlik, soʻzana va milliy matolardan turli xil mahsulotlar tikishga ixtisoslashgan “Deams Shahrinoz” masʼuliyati cheklangan jamiyati rahbari Nilufar Joʻrayeva yosh boʻlsa-da, vohada oʻz oʻmiga ega tanqli hunarmandlardan.

Uning navbatdagi maqsadi — eng yirik soʻzanani tayyorlab, xalqaro festivallarda namoyish etish orqali oʻzbek milliy kashtachilik anʼanalarini dunyoga tanitish, soʻzanani “Ginness rekordlari” kitobiga kiritish.



“Soʻzana” soʻzi aslida, “igna bilan tikilgan” degan maʼnoni ifodalaydi. Soʻzana tikish Markaziy Osiyo, asosan, Oʻzbekiston va Tojikiston hududlarida qadimdan keng tarqalgan. U shoyi, baxmal kabi sidingʼa matolarga kashta gullari tushirish orqali tayyorlanadi.

Bugungi fan-texnologiya davrida qoʻl mehnati namunasi yuksak qadrlanadigan boʻlib qoldi. Tabiiy, bejirim, nozik did bilan tayyorlangan bunday mahsulotlarga kim ham yoʻq derdi?

Yana bir yangilik, boysunlik hunarmandlar tomonidan “Boysun bahori” xalqaro festivali uchun, biz soʻz yuritayotgan yirik soʻzanadan tashqari, 28 metrli tabiiy gilam ham toʻqilyapti.

Eng qizigʻi, u qadimiy toʻqish vositasi — oʻrmak yordamida tayyorlanmoqda. Festival ishtirokchilari bu ulkan gilamni ham tomosha qilish imkoniyatiga ega boʻladi.

Boysun madaniy muhiti 2001-yilda UNESCO tomonidan “Insoniyatning ogʻzaki va nomoddiy madaniy merosi” sifatida eʼtirof etilgan. Hudud azaldan hunarmandchilikning turli yoʻnalishlari, xususan, temirchilik, yogʻoch oʻymakorligi, kulolchilik, duradgorlik yaxshi rivojlangan madaniy markazlardan boʻlgan. Xalq amaliy sanʼatining turli yoʻnalishlari yuksak darajada taraqqiy etgan. Bugungi kunda bu manzilda hunarmandchilikda “Ustoz-shogird” anʼanalari jonli jarayonda davom etib kelyapti.

Hunarmandlarning oilaviy sulolalari kasb-hunar sir-asrorlarini avlodlarga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Boysunlik yosh tadbirkor Maftuna Azizova ham oʻz kasb-kori ortidan baxt topa olgan hunarmandlardan. U shu yoʻnalishda oilaviy tadbirkorlik korxonasiga ham asos solgan. Halol mehnati ortidan obroʻ-eʼtibor topdi, mahalladosh xotin-qizlarni ish bilan taʼminladi. Mehnatlari qadrlanib, eʼtirof etilib, “Shuhrat” medali bilan ham taqdirlandi. Eʼtiborli tomoni, yosh tadbirkor korxonasida qanday mahsulot tayyorlanmasin, barida milliylik aks etib turadi. Anʼana va qadriyatlarimizni namoyon etuvchi turli bosh kiyim, soʻzana, toʻqima gilamlar, ayollar va erkaklar liboslari — hamma-hammasi kishini maftun etmasdan qolmaydi.

— Maftuna va uning shogirdlari tomonidan yaratilayotgan hunarmandchilik namunalari tomosha qilib, bu hunar egalariining mahoratiga qoyil qolaniz. Shunda hunarmandlarni bejizga “qoʻligul” deya eʼtirof etishmas ekanida, deb oʻylanib qolaman, — deydi tumandagi “Obi” MFY xotin-qizlar faoli Zulayho Allamurodova, — Maftuna Azizova milliy qadriyatlarimizni yosh avlodga oʻrgatishni ham oʻz oldiga maqsad qilib koʻygan va uddalayapti. U bizga yaqindan koʻmakchi. Tumanda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan qizlarga tikuvchilik sirlarini oʻrgatmoqda.

Buyuk mutafakkir Bahouddin Naqshbandiyning shunday hikmati bor: “Hunar shunday tulporiki, unga mingin kishi, albatta, hurmat-eʼtibor topgay va saodat manziliga yetgay”.

Bugun maqolamiz qahramonlari yangligʻ bu fikrning haqiqat ekanini isbotlab yashayotgan yurtdoshlarimiz koʻp. Ularni ilgʻamoq uchun atrofga ziyrakroq nazar tashlab, teran muhoshada qilish kifoya. Va ezu niyati bunday mohir qoʻllar ham dunyo muvozanatini saqlashga hissa qoʻshayotganini anglamasdan qolmayviz.

Sarvar TOʻRAYEV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri